

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI

O‘RTA MAXSUS, KASB - HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

**“BETAKRORIMSAN, YAGONASAN, ONA VATANIM -
O‘ZBEKISTONIM!”**

“KECHA KIM EDIGU, BUGUN KIM BO‘LDIK?”

“Mustaqillik darslari” uchun uslubiy qo‘llanma

TOSHKENT - 2015

Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasida 24 yillik mustaqil taraqqiyot davrida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy sohada qo'lga kiritilgan salmoqli yutuqlar, amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ularning ma'no-mohiyati va ahamiyatini o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilariga yetkazish maqsadida "Kecha kim edigu, bugun kim bo'ldik" mavzusidagi "Mustaqillik darslari"ni o'tkazishga qaratilgan.

Tuzuvchilar:

H.Sirojiddinov – O'MKHTM, Axborot-metodik ta'minlash xizmati bo'lim boshlig'i

F.Sindarova - O'MKHTM, Axborot-metodik ta'minlash xizmati etakchi mutaxassisi, kasb-hunar ta'limi a'lochisi

Taqrizchilar:

N.Jo'rayeva – f.f.n., O'zMU qoshidagi Zangiota akademik litseyi direktori

J.Abdurahmanova - t.f.n., O'zMU qoshidagi 2-sonli akademik litsey o'qituvchisi.

KIRISH

Har bir millat, xalq uchun ozod, erkin, mustaqil bo'lib yashash, eng katta baxt, saodat. Uzoq yillik qaramlikdan so'ng, asrlar davomida intilib, kurashib, qo'lga kiritilgan Mustaqillik kuni biz uchun eng ulug', eng aziz bayramdir. Shu munosabat bilan ushbu kunni yuksak darajada va yuqori ko'tarinkilikda o'tkazish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Vatanimiz va xalqimiz hayotidagi buyuk sana - Mustaqillik bayramining 24 yilligiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha qarori qabul qilindi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan bu yilgi bayramni **“Betakrorimsan, yagonasan, ona Vatanim — O'zbekistonim!”** shiori ostida kutib olayotganimiz zamirida va tub mohiyatida ham mustaqillikning naqadar ulug' ne'mat ekanligi, shu ulug' va muqaddas Vatanda o'tayotgan tinch-osuda hayotimiz, farovon turmushimizning qadriga yetish, uni asrab-avaylashdek ulug' g'oya va maqsad mujassamdir.

Shu ma'noda mamlakatimiz mustaqilligining 24 yilligini nishonlash arafasida o'tgan davr mobaynida bosib o'tilgan murakkab yo'limizga yana bir bor nazar tashlash, mustaqil taraqqiyotimiz davomida amalga oshirilgan ishlar, erishgan natijalarni xolisona baholash va ularning mohiyati va ahamiyatini yoshlarimizning ongu shuuriga yetkazish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu qo'llanma mamlakatimizda mustaqil taraqqiyot davrida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy sohada qo'lga kiritilgan salmoqli yutuqlar, amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlar hamda mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning joriy yil 17 iyuldagi “O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi qarori va 2015 yil 9-may kuni poytaxtimizdagi Xotira maydonida "O'tganlarni xotirlash, keksalarni e'zozlash – bizning farzandlik burchimizdir" mavzusidagi OAV vakillari bilan suhbat mazmun-mohiyati va ahamiyatini o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilariga yetkazish maqsadida “Kecha kim edigu, bugun kim bo'ldik” mavzusidagi “Mustaqillik darslari”ni tashkil etishga qaratilgan.

“KECHA KIM EDIGU, BUGUN KIM BO‘LDIK?”

mavzusida “Mustaqillik darslari”ni tashkil qilish bo‘yicha uslubiy tavsiya

Har bir millat, xalq uchun ozod, erkin, mustaqil bo‘lib yashash, eng katta baxt, saodat. Uzoq yillik qaramlikdan so‘ng, asrlar davomida intilib, kurashib, qo‘lga kiritilgan Mustaqillik kuni biz uchun eng ulug‘, eng aziz bayramdir.

Mustaqil O‘zbekistonimizning o‘tgan 24 yillik keng ko‘lamli yaratuvchanlik va bunyodkorlikdan iborat davri betakror taraqqiyot yo‘limizning nechog‘li to‘g‘ri ekanini isbotlab kelmoqda. Davlat, jamiyat va har bir inson hayoti farovonlashmoqda. Bugungi kundan mamnunlik va shukronalik, o‘z iqboli, istiqboli, ertangi kuniga ishonch, Prezidentimiz belgilab bergan istiqlool yo‘liga e‘tiqod har bir o‘zbekistonlikning qalbiga jo bo‘lib, hayoti va faoliyati mayog‘iga aylandi.

Darhaqiqat, Mustaqillik el-yurtimiz uchun o‘z taqdirining egasi bo‘lib, qadr-qimmatini anglab, munosib hayot kechirish, yurtimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish imkoniyatini yaratdi. Ayni paytda u har bir odamning iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda iste’dod va qobiliyatini to‘la namoyon etishi, huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishining mustahkam zaminidir.

Mustaqillik biz uchun milliy davlatchiligimizni, o‘zligimiz, insoniy haq-huquq va qadr-qimmatimizni tiklash, urf-odat va an‘analarimizni, muqaddas islom dinimizni, buyuk ajdodlarimizning tabarruk nomlarini ulug‘lash, sog‘lom va barkamol yangi avlodni shakllantirish bo‘yicha ilgari tasavvur ham qilib bo‘lmaydigan beqiyos imkoniyatlar ochib berdi.

Ayniqsa, yurtimiz yoshlari uchun yaratilgan keng imkoniyatlar, ularning zamonaviy bilim egallashlari, san‘at va sport bilan shug‘ullanishlari uchun qurilgan muhtasham ta‘lim muassasalari, sport inshootlari hamda bu erdagi zarur shart-sharoitlarga bugun dunyo jamoatchiligi katta qiziqish va zo‘r havas bilan qaramoqda.

Ma‘lumki, Mustaqillik bayrami har yili eng ulug‘, eng aziz bayram sifatida yurtimiz bo‘ylab katta tantana qilinadi. E‘tiborlisi esa, har yilgi bayram tadbirlari o‘zgacha ma‘no-mazmun kasb etadigan shior ostida nishonlanadi. Prezidentimiz tashabbusi bilan bu yilgi bayramni **“Betakrorimsan, yagonasan, ona Vatanim — O‘zbekistonim!”** shiori ostida kutib olayotganimiz zamirida va tub mohiyatida ham mustaqillikning naqadar ulug‘ ne‘mat ekanligi, shu ulug‘ va muqaddas Vatanda o‘tayotgan tinch-

osuda hayotimiz, farovon turmushimizning qadriga yetish, uni asrab-avaylashdek ulug' g'oya va maqsad mujassamdir.

Bayram shiorimiz o'z zamirida kundan-kun chiroy ochayotgan va shaharlarimiz ozod va obod yurtimiz qiyofasi, barqaror sur'atlarda rivojlanayotgan iqtisodiyotimiz, mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik, mana shu mo'tabar zaminda totuv va bahamjihat yashayotgan barcha millatlarning bugungi baxt-iqbolini va yorqin istiqbolini, go'zal yurtimizga bo'lgan mehr-muhabbatimizni to'la mujassam etgan.

Shu ma'noda mamlakatimiz mustaqillikning o'tgan 24 yillik davri mobaynida bosib o'tilgan murakkab yo'limizga yana bir bor nazar tashlash, mustaqil taraqqiyotimiz davomida amalga oshirilgan ishlar, erishgan natijalarni xolisona baholash va ularning mohiyati va ahamiyatini, qadri va bahosini yoshlarimizning ongu shuuriga yetkazish dolzarb vazifadir.

Ushbudan kelib chiqib, mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning joriy yil 17 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori va 2015 yil 9 may kuni poytaxtimizdagi Xotira maydonida "O'tganlarni xotirlash, keksalarni e'zozlash – bizning farzandlik burchimizdir" mavzusidagi OAV vakillari bilan suhbatida bildirilgan fikrlar asosida yangi o'quv yilining birinchi o'n kunligida barcha o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida 6 soatlik (4 soat nazariy va 2 soat amaliy) "Mustaqillik darslari" o'tilishi belgilab olindi.

Mazkur "Mustaqillik darslari" quyidagi maqsadlarga qaratildi:

Mustaqillik – bu, avvalo, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishning eng asosiy va muhim sharti, milliy taraqqiyotimizning kafolati ekanligini har bir o'quvchiga yetkazish;

xalqimiz asrlar davomida intilib yashagan va kurashgan, mustaqillik degan bebaho ne'matning qadr-qimmatini teran idrok etish, o'tgan davr mobaynida bosib o'tgan og'ir va mashaqqatli, ayni vaqtda sharaflil yo'limiz, keng ko'lamli islohotlarimiz, qo'lga kiritgan ulkan yutuqlarimizning tub mohiyati va ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirish;

biz kimlarning, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanimizni chuqur idrok etish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi ruhida yashash, istiqlol g'oyalarini yosh avlod qalbi va ongiga yanada teran singdirish;

yosh avlodning ota-bobolar an'analarini davom ettirib, ularning xotirasi, bebaho merosiga nisbatan hurmat-ehtirom, g'urur-iftixor tuyg'usi bilan

yashashi milliy o'ziga xosligimizning asosiy belgisi va hal qiluvchi sharti ekanligini;

Davlatimiz rahbarining ma'naviyat sohasidagi dolzarb muammolar, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodimizning qalbi va ongini zararli ta'sir va xurujlardan himoya qilish, milliy qadriyat va an'alarimizni asrash masalasiga alohida e'tibor qaratayotganini;

mamlakatimizning istiqlol yillari qo'lga kiritayotgan yuksak natijalarning asosiy omili va mezon sifatida birinchi navbatda xalqimizning fidokorona mehnati, odamlarimizning dunyoqarashi, siyosiy ongi, ijtimoiy faolligi ortib, fuqarolik pozitsiyasi tobora kuchayib borayotganini hayotiy misollar bilan bog'lab tushuntirish orqali "Biz kecha kim edigu, bugun kim bo'ldik?" degan hayotiy haqiqatni har bir o'quvchiga yetkazish.

Zero, barcha o'quvchi-yoshlarimiz o'tgan davrda Vatanimiz qo'lga kiritilgan yutuqlar, erishgan marralar mohiyati bilan yaqindan tanishib, O'zbekistonday go'zal va betakror yurtda yashayotganidan faxrlanib yurishi, erishayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarimizda o'z hissassi borligini anglashi, bag'rikenglik, yuksak iroda, fidoyilik kabi ezgu xislatlarni yanada uyg'unlashtirib, bundan-da ulug'vor ishlarga qodir ekanligiga ishonch bilan yashashi zarur.

Ta'lim muassasalarida "Mustaqillik darslari"ni ko'tarinkilik ruhida, yuqori saviya va uyushqoqlik bilan tashkil etish maqsadida quyidagi masalalarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

Tashkiliy ishlar

Hududning tozaligi, obodonlashtirilganligi, daraxtlarga shakl berilib, gulzorlar barpo etilganligi, bayramona ruh kiritilgan shiorlar va rangbarang bayroqlar bilan bezatilganligiga alohida e'tibor qaratish;

ta'lim muassasasi binolari, yo'laklari, ma'muriy xonalar, faollar zali, Ma'naviyat va ma'rifat xonasi, ARM va sinf xonalarida mavjud targ'ibot-tashviqot hamda ko'rgazmali vositalarning holatini nazoratdan o'tkazish, ulardan ma'nan eskirgan, yaroqsiz holga kelganlarini yangilari va mazmunan boyitilgan dolzarb mavzulardagi zamonaviy vositalar bilan almashtirish;

Mustaqillik darslarini yuqori saviyada o'tilishini ta'minlashga qaratilgan barcha tashkiliy-uslubiy choralarni ko'rish;

Xavfsizlik texnikasi qoidalariga asosan barcha chora-tadbirlarni ko'rish va unga so'zsiz rioya etilishini nazoratga olish.

“Mustaqillik darslari”ga qo‘yiladigan o‘quv-uslubiy talablar:

Mustaqillik darslari barcha guruhlarda yangi o‘quv yilining birinchi o‘n kunligida 6 soat hajmida o‘tiladi. Bunda “Mustaqillik darslari” o‘quv dasturidagi birinchi mavzu yangi o‘quv yilining dastlabki kuni, birinchi soatda o‘tiladi.

Mustaqillik darsini o‘tish uchun O‘MKHT Markazi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan tashkil etilgan o‘quv-amaliy seminarlarda qatnashgan ta’lim muassasasida faoliyat olib borayotgan ijtimoiy-gumanitar va iqtisodiy fanlar yoki boshqa fanlardan dars beruvchi tajribali oliy ma’lumotli o‘qituvchilar tanlab olinadi. Shuningdek, mahalliy hokimiyatlarning tavsiyasi bo‘lgan taqdirda, mahalliy hokimiyat vakillari, xalq deputatlari, taniqli olimlar, shoir va yozuvchilar, soha mutaxassislari va joylarda maxsus tashkil etilgan “Targ‘ibot guruhi” a’zolariga ham “Mustaqillik darsi”ni o‘tishga ruxsat etiladi. Ammo, mazkur darslarni o‘tishga ishlab chiqarish ta’limi ustalari yoki o‘rta maxsus ma’lumotlilar jalb etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sinf xonalari toza, ozoda bo‘lishi, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar aks ettirilgan ko‘rgazmali vositalar, shiorlar bilan bezatilgan, kompyuter va videoproektorlar bilan jihozlangan bo‘lishiga alohida e’tibor qaratish lozim.

O‘qituvchi stoli ustida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “O‘zbekiston mustaqillik ostonasida”, “Yuksak ma’naviyat engilmas kuch” va 2015 yilda nashrdan chiqqan “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir” nomli kitoblari, Sharq allomalari va mutafakkirlarining asarlaridan namunalar, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi tomonidan tayyorlangan “Betakrorimsan, yagonasan, ona Vatanim - O‘zbekistonim!” nomli uslubiy qo‘llanma bo‘lishi maqsadga muvofiq.

“Mustaqillik darslari”ni o‘tishda shu o‘quv yilida ta’lim muassasasiga qabul qilingan o‘quvchilardan tarkib topgan guruhlariga alohida e’tibor qaratish hamda bu guruhlariga eng tajribali ijtimoiy-gumanitar fan o‘qituvchilari yoki yuqorida ta’kidlangan targ‘ibotchilardan biriktirish tavsiya etiladi.

“Mustaqillik darslari”ni o‘tishga biriktirilgan barcha o‘qituvchilar O‘MKHT Markazi tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy qo‘llanma bilan ta’minlanadilar. Mazkur qo‘llanmada darsni tashkil etish yuzasidan uslubiy tavsiya, o‘quv dasturi, mavzu yuzasidan dars ishlanmasi, ma’ruza matnlari va slaydlar o‘rin olgan.

O'qituvchilarga qo'yiladigan talablar. O'qituvchi «Mustaqillik darslari» jarayonida o'z faoliyatini, avvalo, mustaqillik – bu, Vatanimizning milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi ruhida jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi, milliy taraqqiyotimizning kafolati ekanligini, faqat va faqat, yurtimizda tinchlik, osoyishtalik va hamjihatlik bo'lsagina Vatanimiz ozod va obod, turmushimiz farovon bo'lishini, biz kimlarning, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanimizni o'quvchilar qalbi va ongiga yanada teran singdirish hamda ularda bu jarayonlarga dahldorlik hissini va mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga qaratmog'i lozim.

Darslarni tashkil etishda turli muammolarning kelib chiqish sabablari, tuzatish yo'llarini topish, o'quvchilarni mustaqil izlanishga, fikrlashga, o'z fikrlarini isbotlashga va turli vaziyatlardan chiqishga o'rgatishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo'llanilishi ularda mustaqil, erkin fikrlash, izlanish, har bir masalaga ijodiy yondoshish, mas'uliyatni sezish, tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Dars mashg'ulotida o'quvchilarga “Betakrorimsan, yagonasan, ona Vatanim – O'zbekistonim” degan ezgu g'oya mazmun-mohiyatini yetkazishda quyidagi **ustuvor yo'nalishlarga** alohida e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

mustaqillik biz uchun milliy davlatchiligimizni, o'zligimiz, insoniy haq-huquq va qadr-qimmatimizni tiklash, urf-odat va an'alarimizni, muqaddas islom dinimizni, buyuk ajdodlarimizning tabarruk nomlarini ulug'lash, sog'lom va barkamol yangi avlodni shakllantirish bo'yicha ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan beqiyos imkoniyatlar ochib bergani;

O'zbekiston o'z vaqtida sobiq mustabid tuzumning ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan, biryoqlama rivojlangan nochor iqtisodiyotdan, “shok terapiyasi” kabi noma'qul modellardan butunlay voz kechib, mashhur besh tamoyilga asoslangan o'z taraqqiyot yo'lini qat'iy tanlab olgani va dunyoda “o'zbek modeli” sifatida e'tirof etilgan ushbu rivojlanish strategiyasining real natijalari;

yaqin o'tmishda qoloq agrar respublika bo'lgan, iqtisodiyotining asosini paxtachilik va paxtani qayta ishlash korxonalari tashkil etgan O'zbekistonning bugungi kunda sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgani, zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini barpo etish hisobidan iqtisodiyotda sanoatning ulushi 25 foizga yetgani, eksportbop va raqobatdosh mahsulotlarning 60 foizdan ortig'i yuqori texnologiyalarga

asoslangan sohalarda ishlab chiqarilayotgani, kuch-qudrati va salohiyati yuksalib borayotgan mamlakatga aylangani;

tarixan qisqa davrda mamlakatimiz iqtisodiyoti 5,5 barobardan ko'proq o'sgani, aholimizning real daromadlari jon boshiga hisoblaganda qariyb 9 barobar oshgani, bunga erishish uchun o'tgan davr mobaynida iqtisodiyotimizga 190 milliard dollar hajmidagi investitsiyalar, jumladan, 65 milliard dollardan ortiq xorijiy sarmoyalarni jalb etish hisobidan biz uchun mutlaqo yangi bo'lgan avtomobilsozlik, neft va gaz kimyosi, neft-gaz mashinasozligi, zamonaviy qurilish materiallari sanoati, temir yo'l mashinasozligi, maishiy elektronika, farmatsevtika, yuqori texnologiyalarga asoslangan oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati kabi soha va tarmoqlarga asos solingani;

qishloq xo'jaligi sohasida mutlaqo yangi iqtisodiy munosabatlar joriy etilib, fermerlik harakati rivoji uchun keng yo'l ochib berilgani, bugungi kunda fermer xo'jaliklarimiz nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 90-92 foizini ishlab chiqarayotgani, balki qishloq taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan qudratli ijtimoiy-siyosiy harakatga aylanib borayotgani;

1990 yilda mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat tovarlari, avvalo don, kartoshka, go'sht, sut va qandolat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji import hisobidan qoplangan bo'lsa, hozirgi vaqtda ularning 96 foizi o'zimizda ishlab chiqarilayotgani, mustaqillik yillarida aholi jon boshiga go'sht iste'moli 1,3 barobar, sut va sut mahsulotlari - 1,6 karra, kartoshka - 1,7 marta, sabzavot - 2 barobardan ortiq, meva - qariyb 4 karra ko'payganini el-yurtimiz farovonligi tobora ortib borayotganligining amaliy tasdig'i ekanligi;

mustaqillikka qadar mamlakatimizda umuman mavjud bo'lmagan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi bugungi kunda yalpi ichki mahsulotning 56 foizdan ortig'ini ishlab chiqarayotgani, mazkur tarmoqda jami ish bilan band aholining 75-77 foizi mehnat qilayotgani va boshqa misollar orqali yurtimizda bu soha jadal rivojlanib, o'rta sinf - mulkdorlar sinfining jamiyat tayanchiga aylanib borayotgani;

o'tgan davrda xarid qobiliyati bo'yicha yalpi ichki mahsulot hajmi aholi jon boshiga 4 marta o'sgani va hozirgi kunda bu ko'rsatkich 6,5 ming AQSh dollaridan ziyodni tashkil etayotgani bu boradagi amaliy ishlarimizning yaqqol samarasi ekanligi;

yurtimiz, shahar va qishloqlarimiz qiyofasi yildan-yilga ochilib, tobora obod va go'zal bo'lib borayotgani, jumladan, qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida zamonaviy uy-joylar va infratuzilma tarmoqlarini barpo etish bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning ijtimoiy ahamiyati;

mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab aholimiz, birinchi navbatda keksa avlod vakillari, xotin-qizlar va yoshlarga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish uchun davlat byudjetidan ijtimoiy ehtiyojlar, jumladan, aholini qo'llab-quvvatlash va sotsial sohani mustahkamlashga ajratilayotgan yillik xarajatlar izchil oshib borayotgani, birgina 2014 yilda bu raqam 60 foizdan ortgani mazkur yo'nalishda olib borilayotgan keng ko'lamli ishlarimizning mantiqiy natijasi ekanligi;

zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallagan, mustaqil fikrlaydigan, o'z ona yurtiga mehr va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan, hech kimdan kam bo'lmaydigan, hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqayotgan yangi avlodni tarbiyalash maqsadida amalga oshirilayotgan ulkan ishlarning mohiyati, shular qatorida faqat so'nggi 5 yilda mamlakatimizda 278 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, 523 ta sport inshooti va 100 dan ziyod suzish havzasi qurilgani va rekonstruktsiya qilingani, bugungi kunda 2 million nafar farzandimiz, jumladan, 840 mingdan ortiq qizlarimiz sport bilan muntazam shug'ullanayotgani va boshqa misollar vositasida sog'lom turmush tarzi hayotimiz qoidasiga aylanib borayotgani;

yurtimizda hukm surayotgan tinch va osoyishta hayot, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni saqlash, chegaralarimiz daxlsizligini asrash, uzoq va yaqin atrofimizdagi davlatlar bilan do'stona munosabat va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlash, turli mintaqa va hududlarda xavf-xatar va tahdidlar tobora kuchayib borayotgan tahlikali zamonda doimo ogoh, sergak va hushyor bo'lib yashash, safarbarligimizni yanada oshirish – bugun hayotning o'zi barchamizdan talab qilayotgan eng muhim va dolzarb vazifamiz ekanligi;

O'zbekiston erishayotgan yutuq va marralar dunyo hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilayotgani, xususan, Jahon iqtisodiy forumi tomonidan e'lon qilingan reytingda keyingi 3 yilda iqtisodiyoti eng tez rivojlanayotgan davlatlar orasida mamlakatimiz 5-o'rinni egallagani, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko'magida AQShning Kolumbiya universiteti tomonidan tashkil etilgan ijtimoiy tadqiqotlar asosida e'lon qilingan "Butunjahon baxt indeksi"da Vatanimiz 158 ta mamlakat o'rtasida 44-pog'onani, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari orasida 1-o'rinni egallagani;

biz qo'lga kiritayotgan bunday yuksak natijalarning asosiy omili va mezoni sifatida birinchi navbatda xalqimizning fidokorona mehnati, odamlarimizning dunyoqarashi, siyosiy ongi, ijtimoiy faolligi ortib, fuqarolik

pozitsiyasi tobora kuchayib borayotganini sodda, hayotiy misollar bilan bogʻlab tushuntirish orqali “Biz kecha kim edigu, bugun kim boʻldik?” degan hayotiy haqiqatni har bir oʻquvchiga yetkazish.

Oʻrta maxsus taʼlim muassasalari uchun “Biz kecha kim edigu, bugun kim boʻldik?” mavzusidagi mustaqillik darslari oʻquv dasturining tarkibiy tuzilishi

№	Mavzu nomi	Oʻquv soatlari
Nazariy mashgʻulotlar		
1-mavzu	Kecha kim edig-u, bugun kim boʻldik?	2 soat
2-mavzu	Xotira — ajdodlarga yuksak hurmat va ehtirom ifodasi.	2 soat
Seminar mashgʻuloti		
3-mavzu	Biz tinchlik tarafdorimiz.	2 soat
Jami:		6 soat

OʻQUV DASTURI
mavzular

1-mavzu. Kecha kim edig-u, bugun kim boʻldik? (2 soat)

Reja:

1. Mustaqillik bu milliy davlatchilik, xaq huquqlarimizning tiklanishi va rivojlanish imkoniyatlari.
2. Dunyoda eʼtirof etilgan “oʻzbek modeli”ning ijtimoiy hayotdagi oʻrni.
3. Oʻzbekiston erishayotgan yutuq va marralar, “Kim edigu, kim boʻldik?”.
4. Eng muhim dolzarb vazifa – yurt tinchligi, xalq farovonligidir.

2-mavzu. Xotira — ajdodlarga yuksak hurmat va ehtirom ifodasi. (2 soat)

Reja:

1. Xotira muqaddas.
2. Vatan uchun jon fido etganlar.
3. O'tganlar xotirasiga ehtirom xalqimizga xos ezgu fazilat.
4. Xotira urushning asosiy dushmanidir.

3 - mavzu. Biz tinchlik tarafdorimiz. Seminar mashg'uloti. (2 soat)

Reja:

1. Tarixdan saboq olib, zamon bilan hamnafas yashash hayot talabi.
2. Tinchlik – barqarorlik va taraqqiyot omili.
3. O'zbekiston baxtiyorlar diyori.

1-mavzu. Kecha kim edig-u, bugun kim bo'ldik?

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2015 yil 17 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" qarori.

Istiqlol shodiyonalarini har yili bir asosiy g'oya, ezgu shior asosida o'tkazish yaxshi an'anaga aylangani.

Istiqlolimizning 24 yillik to'yi munosabati bilan o'tadigan tadbirlar ezgu g'oyasi. **“Betakrorimsan, yagonasan, ona vatanim — o'zbekistonim!”**.

Har qanday davlatning qudratini uning iqtisodiy salohiyati belgilab berishi. Bugungi kunda dunyoda «o'zbek modeli» sifatida e'tirof etilayotgan rivojlanish strategiyasi barcha jabhada o'zining samaralarini berayotgani.

Yaqin o'tmishda qoloq agrar respublika bo'lgan, iqtisodiyotining asosini paxtachilik va paxtani qayta ishlash korxonalari tashkil etgan O'zbekiston bugungi kunda sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan, zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini barpo etgan, kuch-qudrati va salohiyati yuksalib borayotgan mamlakatga aylangani.

O'zbekiston erishayotgan yutuq va marralar dunyo hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilayotgani.

Mustaqillikkacha umuman mavjud bo'lmagan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasiga bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 56 foizidan ortig'i to'g'ri kelayotgani.

«Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun».

Mustaqillikning dastlabki yillarida o'rtaga tashlangan besh tamoyildan biri — «kuchli ijtimoiy siyosat» hisoblanishi.

Joriy yilning mamlakatimizda «Keksalarni e'zozlash yili» deb e'lon qilinishi zahirida ham «kuchli ijtimoiy siyosat» tamoyili yotgani.

Biz qo'lga kiritayotgan bunday yuksak natijalarning asosiy omili va mezon sifatida birinchi navbatda xalqimizning fidokorona mehnati, odamlarimizning dunyoqarashi, siyosiy ongi, ijtimoiy faolligi ortib, fuqarolik pozitsiyasi tobora kuchayib borayotgani.

Yurtboshimiz boshchiligidagi O'zbekistonda inson kapitaliga investitsiyalarni yo'naltirishga izchil iqtisodiy rivojlanish, jismoniy va ma'naviy sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash hamda aholi farovonligini oshirishning muhim sharti sifatida alohida e'tibor.

Yurtimizning bugungi kunda katta sur'atlar bilan barqaror rivojlanishi va dadil odimlar bilan ilgari borishida bugun nafaqat O'zbekistonimizda, balki xalqaro tashkilotlarda ham tan olinib, boshqa mamlakatlarga model sifatida o'rganish uchun tavsiya etilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilayotgani.

O'zbekiston mustaqillik yillarida jahon hamjamiyatida o'z tashqi siyosat strategiyasi, xalqaro munosabatlardagi pozitsiyasi bilan ham munosib o'rin egallagani.

2-mavzu. Xotira — ajdodlarga yuksak hurmat va ehtirom ifodasi.

Xotira va qadrlash inson aqlu zakovatining ulug' ne'mati.

Xotira va uni qadrlash, avaylab asrash bugun va kelajak o'rtasidagi oltin ko'prikdir. Tarixiy xotira odamni beg'amlik va befarqlik tuyg'usidan uyg'otadi, uning g'aflat botqog'iga botib qolishiga yo'l qo'ymaydi.

Xotira – bu yodgorlik, inson qalbi, shuurida paydo bo'ladigan boy ma'naviy o'tmishga, buyuk ajdodlarga ta'zim, ularni eslab o'z ongi vujudiga singdirish, kelajak avlodni ozodlik va erkinlik ruhida tarbiyalash demak.

Ikkinchi jahon urushi insoniyatga keltirgan kulfatlari.

Buyuk g'alabada O'zbekiston xissasi.

Sobiq ittifoq davrida 9-may kuni "G'alaba kuni" deb atalgani. O'tganlar xotirasini o'z yodida saqlab, e'zozlab yashash xalqimiz uchun eng muqaddas fazilat.

O'zbekistonlik jangchilarning jasoratlari.

Ikkinchi jahon urushi bo'lib o'tgan yurtlarda o'zbekistonlik jangchilar nomi bilan ataladigan joylar.

Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning mazmun-mohiyati haqida biri biriga zid fikrlarning kelib chiqayotganligi.

1,5 million o'zbekistonlik jangchining ikkinchi jahon urushidagi ishtirokining mohiyati. Ularni qahramonlik ko'rsatishga undagan kuch.

Ularni xotirlash, jasoratlarini yoshlarga ibrat qilib ko'rsatish bizning muqaddas burchimizdir.

Xotira — ajdodlarga yuksak hurmat va ehtirom ifodasi. Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug'.

Vatan ozodligi va erkinligi, el-yurtimizning tinch va osuda hayotini himoya qilishda kurashib jon bergan o'g'lonlarining nomlari va xotirasi xalqimizning yodida umrbod, abadiy saqlanadi.

9 may – G'alaba kuniga yurtimizda Xotira va qadrlash kuni deb nom berilishi..

Poytaxtimiz Toshkent shahrining markazida va joylarda barpo etilgan Xotira maydonlari.

Keksalarni e'zozlash yili, deb nom olgan joriy yilda, jumladan, 9 may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan mamlakatimizda keng ko'lamli, katta chora-tadbirlarning amalga oshirilayotgani.

Inson, xalq, millat tarixiy xotira bilan tirik va barhayotdir. O'tganlarning xotirasi oldida ta'zim qilgan holda, tiriklarni qadrlaymiz.

Yosh avlodning ota-bobolar an'analarini davom ettirib, ularning xotirasi, bebaho merosiga nisbatan hurmat-ehtirom, g'urur-iftixor tuyg'usi bilan yashashi milliy o'ziga xosligimizning asosiy belgisi va hal qiluvchi sharti ekaniligi.

Davlatimiz rahbarining ma'naviyat sohasidagi dolzarb muammolar, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodimizning qalbi va ongini zararli ta'sir va xurujlardan himoya qilish, milliy qadriyat va an'alarimizni asrash masalasiga alohida e'tibor qaratayotgani.

KECHA KIM EDIGU, BUGUN KIM BO'LDIK?

Reja:

1. Mustaqillik bu milliy davlatchilik, xaq huquqlarimizning tiklanishi va rivojlanish imkoniyatlari.
2. Dunyoda e'tirof etilgan "o'zbek modeli"ning ijtimoiy hayotdagi o'rne.
3. O'zbekiston erishayotgan yutuq va marralar, "Kim edigu, kim bo'ldik?".
4. Eng muhim dolzarb vazifa – yurt tinchligi, xalq farovonligidir.

Mustaqillik... Bu so'z zamirida qanchadan-qancha ajdodlarimizning asrlar davomidagi orzu va armonlari, kurashlari, ertangi kunga umidlari mujassam.

Darhaqiqat, Mustaqillik el-yurtimiz uchun o'z taqdirining egasi bo'lib, qadr-qimmatini anglab, munosib hayot kechirish, yurtimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish imkoniyatini yaratdi. Ayni paytda u har bir odamning iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda iste'dod va qobiliyatini to'la namoyon etishi, huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishining mustahkam zaminidir.

Mustaqillik biz uchun milliy davlatchiligimizni, o'zligimiz, insoniy haq-huquq va qadr-qimmatimizni tiklash, urf-odat va an'analarimizni, muqaddas islom dinimizni, buyuk ajdodlarimizning tabarruk nomlarini ulug'lash, sog'lom va barkamol yangi avlodni shakllantirish bo'yicha ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan beqiyos imkoniyatlar ochib berdi.

Istiqlol sharofati bilan tarixan qisqa davrda O'zbekiston har tomonlama tez sur'atlar bilan rivojlanib, kuch-qudrati va salohiyati jadal yuksalib borayotgan mamlakatga aylangani respublikamizda amalga oshirilayotgan oqilona islohotlar natijasidir. Istiqlolimizning o'tgan 24 yili tom ma'noda muhtaram Prezidentimiz rahnamoligida taraqqiyotning «o'zbek modeli» asosida jamiyatimizning barcha jabhalarida rivojlanish, xalqimiz turmush farovonligini oshirish, xalqaro hamjamiyatda davlatimiz nufuzini yuksaltirish va eng muhimi, tinchlik, osoyishtalik barqaror bo'lgan erkin fuqarolik

jamiyatini qurish davri bo'ldi. Prezidentimiz tashabbusi bilan bu yilgi bayramni "Betakrorimsan, yagonasan, ona Vatanim — O'zbekistonim!" shiori ostida kutib olayotganimiz zamirida va tub mohiyatida ham mustaqillikning naqadar ulug' ne'mat ekanligi, shu ulug' va muqaddas Vatanda o'tayotgan tinch-osuda hayotimiz, farovon turmushimizning qadriga etish, uni asrab-avaylashdek ulug' g'oya va maqsad mujassamdir.

Mamlakatimiz tarixan qisqa davrda, o'tgan asrning 90-yillarida, eng og'ir va tahlikali bir sharoitda, chetdan bo'lgan turli tazyiqlar va soxta va'dalarga uchmasdan, muhtaram Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekiston uchun yakkayu yagona to'g'ri, ya'ni tadrijiy, bosqichma-bosqich rivojlanish yo'lini tanlab olgani va uning naqadar to'g'ri yo'l ekanligini bugun hayotning o'zi qayta-qayta isbotlab bermoqda.

Aynan ana shunday to'g'ri yo'l tanlaganligi tufayli mustaqillikni mustahkamlash, Vatanimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, rivojlangan demokratik davlatlar safidan munosib o'rin egallash, xalqimiz va kelgusi avlodlarimiz uchun hech kimdan kam bo'lmagan hayot sharoitlarini yaratish, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro' - e'tiborini yanada yuksaltirish bo'yicha ulkan, aytish mumkinki, asrlarga teng bo'lgan yo'l bosib o'tildi.

Bularning barchasi Prezidentimiz tomonidan uzoqni ko'zlab, yetti o'lchab bir kesgan holda ishlab chiqilgan va jahonda "Taraqqiyotning o'zbek modeli" deb tan olingan mashhur besh tamoyil asosida amalga oshirilayotgan ishlarning namoyonidir.

Shu ma'noda mustaqil taraqqiyotimiz davomida amalga oshirilgan ishlar, erishgan natijalarni xolisona baholash, ularning mohiyati va ahamiyatini, qadri va bahosini, kecha kim edigu, bugun kim bo'lganligimizni teran his qilish uchun mamlakatimiz mustaqillikning o'tgan 24 yillik davri mobaynida bosib o'tilgan murakkab yo'limizga yana bir bor nazar tashlash maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgandan so'ng mustabid tuzumdan og'ir, nochor meros qolgani, mustabid tuzum tomonidan xalqimiz boshiga qanchadan-qancha azob-uqubatlar yog'dirilgani, "Paxta ishi" degan uydirma va bo'htonlar, Markazdan yuborilgan, o'zini "desantchilar" deb atagan yovuz kuchlarning qonunni, adolatni, xalqimizning sha'ni va g'ururini oyoqosti qilib amalga oshirgan kirdikorlarini unitib bo'lmaydi.

Mustabid tuzum O'zbekistonni siyosiy jihatdan tamoman bukib haq-huquqidan mahrum qilib tashladi. U hamma masalada undan so'rash, uning qoshu qovog'iga qarab ish ko'rishga majbur etildi.

Iqtisodiy jihatdan respublikamiz bir yoqlama rivojlangan, asosan, paxta xomashyosi etkazib berishga moslashtirilgan, paxta yakkahokimligi halokatli tus olgan bir o'lkaga aylantirildi. Chunki iqtisodiyotning «oltin» qoidasi shuki, hech qachon xomashyo sotgan boy bo'lmaydi. O'zbekistonimizda o'sha yillari etishtirilgan 5 million tonnadan ortiq paxtaning atigi 8 – 10 foizigina o'zimizda qayta ishlangan, qolgan qismi olib ketilgan va asosiy foyda tayyor xomashyoni qayta ishlagan begona hududlarga kelib tushgan.

Respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ham ancha orqada bo'lib, 15 respublika ichida oxirgi o'rinlardan birida, har kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha 12-o'rinda, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha ko'rsatkich esa – Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ikki hissa past bo'lgan.

Respublikada aholi jon boshiga xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish o'rtacha Ittifoq darajasining atigi 40 foizini tashkil etgan, daromad darajasi, asosiy turdagi mahsulotlarni iste'mol qilish jihatidan ittifoqdosh respublikalar orasida eng oxirgi o'rinlardan birida turgan.

O'zbekiston aholisi o'rta hisobda go'sht mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni, umuman, Ittifoq aholisiga nisbatan ikki barobar kam iste'mol qilardi:

- sobiq ittifoqda bir fuqaro 1989 yilda 67kg go'sht iste'mol qilgan, O'zbekistonlik bir fuqaro esa buning yarmidan ham kamini – 31 kg iste'mol qilgan;

- SSSR fuqarolari bir yilda 268 dona, o'zbekistonliklar esa 119 ta tuxum eya olgan;

- SSSRda o'rtacha bir kishi 98 kg kartoshka egan bo'lsa, bizning otalarga 25 kgdan tekkan, xolos;

- meva-rezavorlarni SSSR fuqarosi bir yilda 41 kg, O'zbekistonlik esa 27 kg iste'mol qilgan;

- biroq, non va non mahsulotlari iste'molida buning teskarisi bo'lgan, ya'ni SSSRning bir fuqarosi 1987 yilda 129 kg non egan bo'lsa, har bir o'zbekistonlik – 167 kg non egan, chunki nondan boshqa eydigan narsasi bo'lmagan, sababi – bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashardi.

Istibdod yillari xalqni tarixidan, o'zligidan ayirish uchun milliy ma'naviyatiga bolta urildi. Bir yuz o'ttiz yil mobaynida jafokash xalqimiz milliy mustaqilligi va tarixiy davlatchiligini yo'qotib, mustamlaka asoratida yashadi. Avval chor Rossiyasi, so'ng esa qizil imperiyaning beadedad zug'umlarini ko'rdi. Chekmagan azobi, kechirmagan uqubati qolmadi.

Xalqimizning jahon tamadduni (tsivilizatsiyasi) ravnaqiga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan bag'oyat boy tarixi toptaldi. Millat o'z kechmishidan mosuvo qilindi. Xalq o'z tarixi qolib, o'zgalar tarixini o'rganishga majbur etildi. Milliy tariximiz odamlarga faqat va faqat qora bo'yoqlar chaplangan holda o'rgatildi.

Mustamlakachilik siyosati xalqdan etishib chiqqan tarixiy shaxslarga munosabatni izdan chiqardi, millatning o'z ajdodlari bilan faxrlanishiga, biz Amir Temur, Al-Farg'oniy, Al-Buxoriy kabi ulug' zotlarning farzandlari bo'lamiz, deyishiga sira yo'l qo'ymadi.

Amir Temurni johil podsho bo'lgan deb, ko'pgina shoiri-fuzalolarni diniy xurofotni targ'ib etgan mistik shoirlar deb va boshqa ko'pgina ulug' odamlar nomini badnom etib, ular hayoti va faoliyatini istagancha qoralab ko'rsatdi, ayrimlari haqida, hatto, og'iz ochishga imkon bermadi.

Butun islom olamida amiru-l-mu'minin fi-l-hadis, al-imomu-l-miqdom (jasur imom), imomu-l-muhaddisin sifatlari bilan ulug'langan Imom Buxoriy o'z vatanida unutilishga mahkum etildi.

O'tgan asrning 30-40 va 50-yillari boshlarida ko'p asrlik qadriyatlarimizni saqlashga va boyitishga harakat qilgan Abdulxamid CHO'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir kabi ko'plab olimlar, adiblar o'tmish sarqitlariga qarshi kurash shiori ostida asossiz qatag'on qilindi.

O'zbek xalqi ma'naviy-madaniy merosdan to'la bahramand bo'lish huquqidan mahrum qilindi. Xalq faqatgina kommunistik mafkura o'z chig'irig'idan o'tkazgan, g'arazli maqsadlariga moslab, atayin xato talqin etilgan asarlarni o'rganishga mahkum etildi. Merosning katta qismiga qo'l tekkizishga, ular haqida og'iz ochishga yo'l qo'ymadi.

O'zbek milliy urf-odatlarini, xalq an'analariga qarshi muttasil kurash uyushtirildi. Xalq o'z ajdodlari an'analari asosida yashashga, loaqal, to'y-marosimlarini ko'ngildagidek o'tkazish imkoniga ega bo'lmadi. Milliy bayramlar, oilaviy marosimlar yashiriqcha o'tkazilar, hukmron siyosat bundan xabar topsa, ochiq-oshkor jazo choralari ko'rar edi.

Tilimiz tahqirlandi. Respublikada aholining to'rttdan uch qismini o'zbeklar tashkil etishi, qardosh millatlar vakillaridan iborat yana 15 foiz aholi o'zbek tilini yaxshi bilishiga qaramay, o'zbek tili O'zbekistonda davlat tili emas edi. O'zbek tili xonaki til, uy-ro'zg'or tili darajasiga tushib qoldi. Hatto, o'zbek tili va adabiyoti haqidagi dissertatsiyalar ham rus tilida yozilib, yoqlanar edi. Uni shunday darajaga tushirishga harakat qilindiki, ayrim toifalar o'z tilimizni bilishni madaniyatdan orqada qolish, qoloqlik hisobladi. O'zbek tilida so'zlashmaydigan, hatto, bu tilni bilmaydigan o'zbeklar toifasi

paydo etildi. O'zbek tili xonaki til, uy-ro'zg'or tili darajasiga tushib qoldi. Uni shunday darajaga tushirishga harakat qilindiki, ayrim toifalar o'z tilimizni bilishni madaniyatdan orqada qolish, qoloqlik hisobladi. O'zbek tilida so'zlashmaydigan, hatto, bu tilni bilmaydigan o'zbeklar toifasi paydo etildi. SHo'ro davrida millat avval arabiy, keyin lotin, undan so'ng esa kirill yozuvi asosidagi alifbolarda savod chiqarishga majbur qilindi. Maqsad – xalqni o'z o'zanlaridan mahrum etish, merosidan ayirib qo'yish, shu tariqa unga tarixini unuttirish, edi.

Mustabid, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi odamlar erkini bo'g'ib, ularda ijodkorlik, bunyodkorlik, intiluvchanlik fazilatlarini yo'qotdi, o'zbek xalqi ong-shuuridan Vatan tushunchasini siqib chiqarishga harakat qildi.

Bizga ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz yashab o'tgan, barchamizning kindik qonimiz to'kilgan O'zbekistonni Ona Vatanim deb baralla aytishga yo'l qo'yilmadi. 74 yil bizni bog'chadan boshlab: "sening Ona vatanning – SSSR", – deb aldab kelishdi. Bugun ko'zlarimizni katta ochib qarasak, u millionlab o'zbekistonlik go'daklarni o'ldirgan o'gay ona ekan.

Dalil. 1991 yilda sobiq markazdan *"Narodnoe xozyaystvo SSSR v 1990g."* degan statistik hisobot e'lon qilindi. Unga ko'ra 1985-1987 yillarda SSSRning ayrim respublikalarida bolalar o'limi (har 1000 nafar tug'ilgan bir yoshgacha o'lgani) to'g'risida ma'lumot berildi. Unda 1985 yilda SSSRda tug'ilgan har 1000 chaqaloqning 26 nafari bir yoshga kirmay o'lgani ko'rsatilgan. O'zbekiston SSRda esa tug'ilgan har 1000 chaqaloqdan 46,2 nafari bir yoshga etmay o'lgan. Latviyada bu raqam 13,0 nafarni tashkil etgan. O'zbekiston bolalar o'limi bo'yicha SSSRda doimiy ravishda birinchi o'rinda turgan. Mana shu misol ham *"ona Vatan"* mehribonchiligining biz uchun qanchalar qimmatga tushganini ko'rsatmaydimi?

Faqat va faqat Mustaqillik tufayligina, xalqimiz tom ma'noda o'z erki va ozodligini qo'lga kiritdi, o'zining mustaqil ichki va tashqi siyosatini, iqtisodiy rivojlanish yo'lini belgilash imkoniyatiga ega bo'ldi.

O'zbekiston o'z vaqtida sobiq mustabid tuzumning ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan, biryozlama rivojlangan nochor iqtisodiyotdan, "shok terapiyasi" kabi noma'qul modellardan butunlay voz kechib, mashhur besh tamoyilga asoslangan o'z taraqqiyot yo'lini qat'iy tanladi va dunyoda "o'zbek modeli" sifatida e'tirof etilgan ushbu rivojlanish strategiyasini belgilab oldi.

Ma'lumki, sobiq tuzum davrida respublikamizning iqtisodiyoti bir tomonlama rivojlangan, faqat xomashyo etishtirishga yo'naltirilgan bo'lib, mash'um salbiy oqibatlariga olib kelgan paxta yakkahokimligi avjiga chiqqan edi. O'zbekiston o'zining qoloq ishlab chiqarish va sotsial infratuzilmasi

bilan sobiq ittifoqda jon boshiga iste'mol darajasi bo'yicha eng past o'rinda turardi. Mustaqil rivojlanish yillarida - tarixan qisqa bir davrda yurtimiz yangi va ulkan marralarni qo'lga kiritdi, buning natijasida mamlakatimizning qiyofasi butunlay o'zgarib, jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzi yuksalib bormoqda.

Dunyo moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hali-beri davom etayotgan bir paytda mamlakatimiz iqtisodiyoti barqaror ravishda sezilarli darajada rivojlanmoqda. Xususan, faqat joriy yilning olti oyi davomida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,1 foiz, iste'mol tovarlari tayyorlash sur'ati 13,5 foiz, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi 6,5 foizga o'sgan. SHuni ham alohida ta'kidlash lozimki, Jahon iqtisodiy forumi tomonidan e'lon qilingan reytingda keyingi 3 yilda iqtisodiyoti eng tez rivojlanayotgan davlatlar orasida davlatimiz 5-o'rinni egallab kelmoqda.

Yaqin o'tmishda qoloq agrar respublika bo'lgan O'zbekiston bugungi kunda sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan, zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini barpo etish hisobidan iqtisodiyotda sanoatning ulushi 25 foizga etgan, eksportbop va raqobatdosh mahsulotlarning 60 foizdan ortig'i yuqori texnologiyalarga asoslangan sohalarda ishlab chiqarilayotgan, kuch-qudrati va salohiyati yuksalib borayotgan mamlakatga aylandi.

Tarixan qisqa davrda mamlakatimiz iqtisodiyoti 5,5 barobardan ko'proq o'sdi, aholimizning real daromadlari jon boshiga hisoblaganda qariyb 9 barobar oshdi, bunga erishish uchun o'tgan davr mobaynida iqtisodiyotimizga 190 milliard dollar hajmidagi investitsiyalar, jumladan, 65 milliard dollardan ortiq xorijiy sarmoyalarni jalb etish hisobidan biz uchun mutlaqo yangi bo'lgan avtomobilsozlik, neft va gaz kimyosi, neft-gaz mashinasozligi, zamonaviy qurilish materiallari sanoati, temir yo'l mashinasozligi, maishiy elektronika, farmatsevtika, yuqori texnologiyalarga asoslangan oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati kabi soha va tarmoqlarga asos solindi. So'nggi 10 yil mobaynida mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati 8 foizdan kam bo'lmasdan kelmoqda.

Yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 2000 yilda 14,2 foizga teng bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ushbu ko'rsatkich 24,2 foizdan ziyodni tashkil etmoqda.

Avtomobilsozlik, motorsozlik va ularga butlovchi qismlar tayyorlaydigan sohalarga, neft va gazni qayta ishlaydigan, farmatsevtika mahsulotlari, zamonaviy televizor va kompyuterlar ishlab chiqaradigan yangi-yangi sanoat tarmoqlariga asos solindi.

Bugungi kunda har uchta oilaning bittasi – engil avtomobilga ega, har 100 ta oilaga o'rtacha 80 ta xolodilnik, 146 ta televizor to'g'ri kelyapti.

Qishloq xo'jaligi sohasida mutlaqo yangi iqtisodiy munosabatlar joriy etildi, fermerlik harakati rivoji uchun keng yo'l ochib berildi. Bugungi kunda fermer xo'jaliklarimiz qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 90-92 foizini ishlab chiqarmoqda. Zero, bu ko'rsatkich aholini o'zimizda ishlab chiqarilgan sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlabgina qolmasdan, 180 turdan ortiq sarxil, qayta ishlangan sabzavot va mevalar dunyoning 80 mamlakatiga eksport qilinmoqda. Eng muhimi, fermerlik harakati qishloq taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan qudratli ijtimoiy-siyosiy harakatga aylandi.

1990 yilda mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat tovarlari, avvalo don, kartoshka, go'sht, sut va qandolat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji import hisobidan qoplangan bo'lsa, hozirgi vaqtda ularning 96 foizi o'zimizda ishlab chiqarilmoqda. Mustaqillik yillarida aholi jon boshiga go'sht iste'moli 1,3 barobar, sut va sut mahsulotlari – 1,6 karra, kartoshka – 1,7 marta, sabzavot – 2 barobardan ortiq, meva – qariyb 4 karra ko'payganini el-yurtimiz farovonligi tobora ortib borayotganining amaliy tasdig'idir.

Olib borilgan sa'y-harakat va amaliy ishlari natijasi o'laroq, o'tgan davrda xarid qobiliyati bo'yicha yalpi ichki mahsulot hajmi aholi jon boshiga 4 marta o'sdi va hozirgi kunda bu ko'rsatkich 6,5 ming AQSH dollaridan ziyodni tashkil etdi.

Mustaqillikka qadar mamlakatimizda umuman mavjud bo'lmagan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi bugungi kunda yalpi ichki mahsulotning 56 foizdan ortig'ini ishlab chiqarmoqda. Ma'lumki, hozirgi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari mamlakatimiz iqtisodiyotida hal qiluvchi kuch bo'lib, uni dunyo bozoriga tanituvchi vosita sifatida xizmat qilayapti. Sohada ro'y berayotgan yangiliklar, ishbilarmonlarimiz qo'lga kiritayotgan yutuqlar shunday deyishimizga to'la asos bo'la oladi. Masalan, respublikamizda birgina joriy yilning olti oyida 15,2 mingta, ya'ni o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 6,3 foiz ko'p yangi kichik biznes sub'ektlari faoliyati yo'lga qo'yildi. O'zining ilg'or g'oyalari bilan yurt ravnaqiga hissa qo'shish istagidagi ishbilarmonlarga ajratilgan kreditlar miqdori esa 6,4 trillion so'mga etdi. Mazkur tarmoqda jami ish bilan band aholining 75-77 foizi mehnat qilayotganligi bu soha jadal rivojlanib, o'rta sinf – mulkdorlar sinfining jamiyat tayanchiga aylanib borayotganining yorqin misolidir. Aytish joizki, tadbirkorlarimiz erishayotgan muvaffaqiyatlar soha rivoji uchun huquqiy jihatdan mustahkam poydevor yaratilayotgani, bevosita Prezidentimiz tashabbusi bilan ularga ko'plab imtiyozlar berilayotgani samarasidir.

Bugun kim bilan gaplashmang, suhbat mavzusi o'z-o'zidan bunyodkorlik ishlariga borib taqaladi. Bu, tabiiy, albatta. Chunki so'nggi yillarda yurtimizda qad rostlayotgan biri-biridan go'zal va muhtasham binolar, keng hamda ravon yo'llar, mustahkam ko'priklarni ko'rib, ko'zimiz quvnaydi. Milliy va zamonaviy me'morchilikning eng yuksak talablari asosida qurilayotgan bunday inshootlardan biz qanchalik faxrlanayotgan bo'lsak, xorijlik mehmonlarning ularga hayratu havas bilan boqayotgani, o'zbek me'morlari mahoratiga tan berayotgani, ta'bir joiz bo'lsa, bizdan ibrat olishga harakat qilayotgani ham rost.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari tobora keng quloqchilik yozib, sifat jihatidan yuqori bosqichga ko'tarilayotgani, chindan ham, quvonarli. E'tiborlisi, qurilish ishlari, ayniqsa, qishloq joylarda kun sayin avj olayapti. Jumladan, birgina joriy yilning olti oyida Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi uy-joy qurish dasturiga muvofiq, 900 milliard so'mlikdan ziyod ish bajarildi. Asfalt yo'llar, gulzorlar, zamonaviy xizmat ko'rsatish va servis shoxobchalari, maktab, maktabgacha ta'lim muassasasi - bularning barchasi shahar qiyofasini eslatib, go'yo uzukka ko'z qo'ygandek, mahallalarimiz ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi.

Eng muhimi, mustaqillik sharofati bilan ulkan, olamshumul yutuqlarimizdan biri ma'naviy erkimizni qo'lga kiritdik. Muqaddam nomini ham eshitmagan Imom al-Buxoriy, Imom Termiziy, Mahmud Zamaxshariy, Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Moturidiy, Abu Hafs Kabir Buxoriy kabi allomalarni bildik. Alisher Navoiy (1991), Bahouddin Naqshband (1993), Mirzo Ulug'bek (1994), Amir Temur (1996), Imom al-Buxoriy (1998), Ahmad al-Farog'oniy (1998)ning tavallud sanalari jahon miqyosida o'tkazildi. Bu tantanalar o'zbek xalqining chinakam bayramiga aylanib ketdi.

Muqaddas dinimiz, e'tiqod erki o'zimizga qaytdi. "Qur'on" tarjimasini, Imom al-Buxoriy saralagan to'rt jildlik "Hadis"lar majmui, qanchadan-qancha diniy kitoblar bosilib chiqdi. Qanchadan-qancha masjidlar qayta obod etilib, ulamolar ixtiyoriga topshirildi, ko'plab yangi masjidlar qurildi. 1999 yili Toshkent Islom universiteti tashkil etildi, Ramazon, Qurbon hayitlari umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Haj va umra ziyoratlari uchun qulay sharoitlar yaratildi. Mustaqillikning har yilida o'rtacha besh mingga yaqin musulmon haj ziyoratini ado etyapti.

O'zbek tilimizga davlat tili maqomi berildi. Bugungi kunda o'zbek tilini o'rganuvchi xorijliklar soni oshib bormoqda.

Sog'lom va barkamol yangi avlodni shakllantirish bo'yicha ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan beqiyos imkoniyatlar yaratildi. Qanchadan-

qancha sport majmualari, stadionlar, zamonaviy ko'inishdagi barcha qulayliklarga ega jahon talablariga javob beradigan jihozlar bilan ta'minlangan maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, musiqa maktablari, yoshlar ijodiyoti markazlari ishga tushirildi.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab aholimiz, birinchi navbatda keksa avlod vakillari, xotin-qizlar va yoshlarga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish uchun davlat byudjetidan ijtimoiy ehtiyojlar, jumladan, aholini qo'llab-quvvatlash va sotsial sohani mustahkamlashga ajratilayotgan yillik xarajatlar izchil oshib bormoqda. Birgina 2014 yilda bu raqam aholini qo'llab-quvvatlash va sotsial sohani mustahkamlashga ajratilayotgan yillik xarajatlarning 60 foizdan ortganini mazkur yo'nalishda olib borilayotgan keng ko'lamli ishlarimizning mantiqiy natijasidir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlar "Islohot islohot uchun emas, inson uchun!" tamoyili asosida olib borilmoqda. Iqtisodiyotning tadrijiy va mutanosib rivojlanishi aholi hayot darajasi va sifati izchil oshishi uchun mustahkam negiz yaratdi. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalari bir yilda yigirma foizdan ziyodga o'sdi. Aholi jon boshiga real daromadlar 10,2 foiz ko'paydi. Joriy yilda ijtimoiy soha va infratuzilma uchun xarajatlar yana 22,5 foiz oshirilishi belgilangan.

E'tiborlisi, O'zbekistonda 2015 yil Keksalarni e'zozlash yili deb e'lon qilindi va "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturi qabul qilindi. Mazkur dasturga muvofiq O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi tizimidagi 15 ta sanatoriyda yil boshidan buyon jami 1072 nafar urush va mehnat fronti faxriysi davlat byudjeti hisobidan, 57 nafar urush va mehnat fronti faxriysi esa kasaba uyushmalari mablag'lari hisobidan sog'lomlashtirildi.

Xalqimizda "To'rt muchaling sog' bo'lsa, baxting butun bo'ladi", degan naql bor. CHindan ham, insonning vujudi va ongi sog'lom bo'lsagina, yurish-turishida fayz, turmushida xotirjamlik, mehnatida baraka bo'ladi. SHu jihatdan olib qaraganda, yurtimizda mustaqillikning ilk yillaridanoq sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish, uni xalqaro andozalar darajasiga ko'tarish masalasiga alohida e'tibor qaratilayotgani kutilgan natijani bermoqda. Bugungi kunda nafaqat poytaxt yoki viloyat markazlari, balki eng chekka qishloqlarda istiqomat qilayotgan kishilar ham malakali tibbiy xizmatlardan bahramand ekani, muhimi, eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan tibbiyot muassasalarida bilim va tajriba borasida hech kimdan kam bo'lmagan malakali mutaxassislar faoliyat yuritayotgani bundan dalolat beradi. Uzoqqa bormaylik, yaqin o'tmishda bemorning uncha murakkab

sanalmagan xastalikdan forig' bo'lishi uchun poytaxtga borishiga to'g'ri kelgan bo'lsa, endilikda hatto yurak kasalligining murakkab turlari bilan bog'liq amaliyotlar ham viloyatlar shifoxonalarida muvaffaqiyatli amalga oshirilayapti. YOki bo'lmasa, fuqarolar sog'lig'ini muhofaza qilishning mustahkam qo'rg'oniga aylangan qishloq vrachlik punktlarini olib ko'raylik. Tibbiyotning birlamchi bo'g'ini hisoblangan bu muassasalar har jihatdan afzal ekanligi amalda o'z isbotini topdi. Respublikamiz aholisining katta qismi qishloqlarda yashashini inobatga olsak, sog'lom turmush tarzini mustahkamlashda ular qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini anglash qiyin emas.

Tibbiyot sohasini isloh qilish, sog'lom avlodni dunyoga keltirish va uni voyaga etkazish doirasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar natijasida xalqimizning o'rtacha umri 1990 yildagi 67 yoshga nisbatan 73,5 yoshga ortdi. Onalar o'limi 3,1 martaga, go'daklar o'limi 3,2 martaga kamayib ketdi.

"Save the Shildren" xalqaro tashkiloti reytingiga ko'ra, O'zbekiston dunyodagi bolalar salomatligi to'g'risida eng ko'p g'amxo'rlik ko'rsatadigan o'nta mamlakat qatoridan joy oldi.

Tibbiy xizmat sifatini tadrijiy ravishda oshirib borish, ayniqsa, aholini sifatli dori vositalari bilan ta'minlash, farmatsevtika faoliyatini tubdan takomillashtirish kabi vazifalarga ham alohida e'tibor qaratildi. Birgina misol: agar mustaqillikkacha respublikamizda faqatgina 2 ta farmatsevtika korxonasi faoliyat ko'rsatib, ular tomonidan 30 ga yaqin nomdagi dori vositalari ishlab chiqarilgan bo'lsa, bugun mazkur ko'rsatkichlar tegishli ravishda 149 va 1482 taga etdi.

Yurtimizda yosh avlodning jismonan sog'lom, ruhan tetik, intellektual jihatdan etuk bo'lib kamol topishi, har tomonlama bilim olishi va kasb egallashi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Xususan, so'nggi 5 yilda yoshlar uchun mamlakatimizda 278 ta bolalar musiqa va san'at maktabi 523 ta sport inshooti va 100 dan ortiq suzish havzalari qurib, rekonstruktsiya qilindi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq, mamlakatimizda uzluksiz ta'limning tobora jadal rivojlanib borayotgan iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha uchun zarur mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan o'ziga xos tizim yaratilishiga erishildi. Eng chekka qishloqlarda ham zamonaviy maktablar, litsey va kasb-hunar kollejlari bunyod etildi.

Jismoniy va ma'naviy sog'lom avlodni tarbiyalash, zamonaviy hunarlarni puxta egallagan mutaxassislarni tayyorlash, ta'lim darajasini yanada takomillashtirish va uning sifatini oshirish, ta'lim muassasalarining

moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, amalga oshiriladigan ishlarning har tomonlama samaradorligini ta'minlash masalalariga katta e'tibor qaratilayotganligini e'tirof etish lozim. Xususan, 1990 yilda Davlat byudjetining 17,9% ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh etishga yo'naltirilgan bo'lsa, bugun bu ko'rsatkich 34,2% ortib, mamlakatimiz yillik yalpi ichki mahsulotning 10-12%ni tashkil etayotgani ham bundan dalolat beradi.

YOsh avlodni ham aqlan, ham jismonan sog'lom dunyoga keltirish, tarbiyalash va munosib avlodlar darajasida shakllantirish vazifasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Qisqa fursat ichida yurtdoshlarimizdan boks, shaxmat, engil atletika va sportning boshqa turlari bo'yicha jahon chempionlari etishib chiqdi. Ular nomi tarix sahifalariga muhrlandi.

Mustaqillik yillari muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat tufayli mamlakatimiz ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. O'zbekiston erishayotgan yutuq va marralar dunyo hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilmoqda. Xususan, AQSHning Kolumbiya universiteti taniqli sotsiologlari tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Umumjahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlar va sotsiologik tadqiqotlar natijalari asosida tuzilgan World Happiness Index ("Dunyoning eng baxtli mamlakatlari") reytingi e'lon qilindi. "Dunyoning eng baxtli mamlakatlari" yangi reytingida O'zbekiston 158 ta mamlakat orasida 44-pog'onada, Hamdo'stlik davlatlari o'rtasida esa birinchi o'rinda qayd etilgan bo'lib, Janubiy Koreya, Yaponiya, Italiya, Malayziya va boshqa davlatlarni ortda qoldirgan. Bundan tashqari bizning mamlakatimiz "baxt indeksi" har yilgi o'sish ko'rsatkichida birinchi o'ntalik davlatlari qatoridan o'rin olgan.

Ta'kidlab o'tish joizki, dunyoning eng baxtli mamlakatlari reytingi 2012-2014 yillar yakunlari asosida tuzilgan bo'lib, unda inson manfaatlari va farovonligini ta'minlashga qaratilgan qirqqa yaqin mezonlar bo'yicha qiyosiy tahlil o'tkazilgan. Mazkur tadqiqotda aholi farovonligi, Umumjahon sog'liqni saqlash tashkilotiga ma'lumotiga ko'ra o'rtacha umr ko'rish yoshi, yalpi ichki mahsulotining aholi jon boshiga taqsimoti, havfsizlik darajasi, oiladagi ajrimlarning soni, ishsizlar ko'rsatkichi, korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi amaliy ishlar, aholining fuqarolik tashabbusi va erkinligini amalga oshirish huquqi kabi ko'rsatkichlar hisobga olingan. SHuningdek, insonlarning bir-biriga nisbatan ishonchi, yaxshi munosabatda bo'lishi hamda kundalik xursandchilik va tashvish sabablari ham hisobga olingan.

O'zbekistonning mazkur reytingda yuqori pog'onani egallashi mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda yuksalib borayotgan hayot darajasi sohasida olib borilayotgan oqilona siyosat natijasidir.

Lekin shu bilan birga, dunyo davlatlarining ayrimlarida tinchlik barqaror emasligidan barchamiz ommaviy axborot vositalari orqali xabardor bo'lib turibmiz. Davlatlar o'rtasida o'zaro manfaatlar to'qnashuvi natijasida yuzaga kelayotgan turli siyosiy nizolar, terrorizm, separatizm, narkotrafik va boshqa xavf-xatarlar kuchayib borayotgan hozirgi tahlikali zamonda yurtimizda hukm surayotgan tinch va osoyishta hayotning qadr-qimmatini yanada chuqurroq anglamoqdamiz. SHu nuqtai nazardan yurtimizda barqaror bo'lib turgan ushbu aziz ne'matni, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni saqlash, chegaralarimiz daxlsizligini asrash, uzoq va yaqin atrofimizdagi davlatlar bilan do'stona munosabatlar va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlash oldimizda turgan eng dolzarb masalalardan biridir.

Xalqimiz mustaqillikni ko'p yillar intiqlik, intizorlik va katta hayajon bilan kutgan edi. Endilikda esa yurtdoshlarimiz ozodlik nashidasiga erishganini har yili keng nishonlamoqda. Ular shukronalik baxtini his etdi. Davlatimiz rahbari bu yaxlit butunlik va ishonchni yurakdan his etib, mana 24 yildirki xalqimiz farovonligi va tinch-osoyishta hayoti uchun kamarbasta bo'lib kelmoqda. Albatta, bu yutuq va muvaffaqiyatlarning qo'lga kiritilishida xalqimizning fidokorona mehnati, odamlarimizning dunyoqarashi, siyosiy ongi, ijtimoiy faolligi ortib, fuqarolik pozitsiyasi kuchayib borayotgani tufaylidir. Va albatta men, shu yurtning farzandiman degan har bir kishi mustaqillikni asrab-avaylashi, uni mustahkamlashi uchun bor kuch-g'ayrati, bilimni safarbar qilishi va mamlakatdagi erkin va farovon hayotni, shuningdek tinchlikni qadriga yetishi, mustaqillik menga nima berdi, deb emas, men mustaqillikka nima berdim deb, yashashi kerak.

2-mavzu. **XOTIRA — AJDODLARGA YUKSAK HURMAT VA EHTIROM IFODASI.**

Reja:

1. Xotira muqaddas.
2. Vatan uchun jon fido etganlar.
3. O'tganlar xotirasiga ehtirom xalqimizga xos ezgu fazilat.
4. Xotira urushning asosiy dushmanidir.

“Tarixiy xotira — bu umr mazmunini, avlodlar o'rtasidagi vorislik tuyg'usini, ularning bir-biriga daxldor ekanini, hayotning bamisoli uzviy halqalar kabi ketma-ket bog'lanishini anglash, tarixdan xulosa chiqarib, bugungi kun uchun to'g'ri yo'l tanlash, ota-bobolarimizning ruhi poklariga hurmat bilan qarash, milliy qadriyat va an'alarimizni toptashga yo'l qo'ymaslik, ularni ko'z qorachig'idek asrash demakdir”. Islom Karimov.

Xotira va qadrlash inson aqlu zakovatining ulug' ne'mati. Buni o'tmish ajdodlarimiz timsolida yaqqol ko'ramiz. Ularning ona-Vatan ozodligi va istiqboli uchun har qanday dushmanga qahshatqich zarba bergani oqibatida erkinlikka, Istiqlolga erishganini ham xotiralaymiz, ham qadriga yetamiz.

Xotira va uni qadrlash, avaylab asrash bugun va kelajak o'rtasidagi oltin ko'prikdir. Xotira-tarixiy dunyoqarashni tarbiyalaydi, takomillashtiradi, vatanparvarlik g'oyalarini qadrlash, ajdodlarimiz udumi, urf-odatlarini e'zozlashga o'rgatadi, qat'iy firk-tafakkurni, o'zligimizni bunyod qiladi. Yurtboshimiz “Xotirasi bo'lmagan, tarixni unutgan, o'z ajdodlarining qadriga etmaydigan millatning istiqboli yo'q. Bu haqiqatni kishilik tarixi isbotlab turibdi”, deganlarida yana bir karra haq edilar.

Chindan ham, tarixiy xotira odamni beg'amlik va befarqlik tuyg'usidan uyg'otadi, uning g'aflat botqog'iga botib qolishiga yo'l qo'ymaydi. Bu fikrga ishonch hosil qilish uchun Islom Karimovning “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobiga murojaat qilish joiz. Ushbu kitobdan o'rin olgan, 1990 yil 5 iyunda respublika miqyosidagi katta bir majlisda mamlakatimiz rahbari tomonidan bayon etilgan, chuqur siyosiy mazmunga, dasturiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'ruzaning “O'tmishdan saboq chiqarib, kelajakka ishonch bilan” deb atalishi buni yaqqol tasdiqlaydi.

Bundan 25 yil oldin so'zlangan o'sha ma'ruzada bugun tilga olinayotgan eng muhim masalalar, ya'ni tarixga hurmat bilan qarash, urush va mehnat faxriylarini qadrlash, azaliy urf-odat va an'analarni, milliy tilni

asrab-avaylash, millatlararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, millatchilik, shovinizm, "ommaviy madaniyat" ko'rinishlariga qarshi kurashish, baynalminal tarbiyani kuchaytirish, yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, Qurolli Kuchlarga munosabat kabi o'nlab masalalar o'zining har tomonlama chuqur tahlilini topganini va bugungi kun bilan naqadar hamohang ekanini yaqqol ko'rish mumkin.

Xotira – bu yodgorlik, inson qalbi, shuurida paydo bo'ladigan boy ma'naviy o'tmishga, buyuk ajdodlarga ta'zim, ularni eslab o'z ongi vujudiga singdirish, kelajak avlodni ozodlik va erkinlik ruhida tarbiyalash demak. Faqat Xotira va Qadrlash orqali ibratli va ilg'or insoniy fazilatlarni hamisha va har qanday sharoitda targ'ibot-tashviqot qilish yo'li bilan biz o'z ongimizni, milliy tafakkurimizni to'ydirib, takomillashtirib boramiz.

"Bugun Vatanimiz, xalqimiz Ulug' Vatan urushida fashizm ustidan qozonilgan G'alabaning 70 yilligini keng nishonlamoqda, – dedi Islom Karimov ommaviy axborot vositalari vakillari bilan suhbatda. – Ana shu buyuk sana bilan avvalo urushda qatnashgan, mardlik va jasorat ko'rsatgan barcha urush faxriylarini, shular qatorida front ortida fidokorona mehnat qilgan yurtdoshlarimizni, butun xalqimizni tabriklash, urush maydonlaridan qaytmagan, bugungi musaffo osmonimiz uchun jon bergan vatandoshlarimiz xotirasi oldida bosh egish barchamiz uchun ham qarz, ham farz, deb bilaman." Islom Karimov.

Ikkinchi jahon urushi dunyo tarixida misli ko'rilmagan darajada katta va dahshatli, butun insoniyat boshiga og'ir kulfatlarni solgan urush bo'ldi. Bu urush 61 mamlakatni, er shari aholisining 80 foizini ya'ni 1,7 mlrd. kishini o'z domiga tortdi.

Urush insoniyatga qimmatga tushdi, 50 milliondan ortiqroq kishi halok bo'ldi, 90 milliondan ortiq kishi yarador va mayib bo'lib qoldi, moddiy talofatlar qimmati 4 trillion dollardan oshib ketdi. Urush Yevropa, Afrika, Osiyo va Okeaniyada turli frontlarda bo'ldi. Fashizmni tor-mor etishda ko'p mamlakatlar qatnashdi. Biroq urushning asosiy og'irlik markazi SSSR xalqlari zimmasiga tushdi. 27 millionga yaqin kishi urush alangasida halok bo'ldi, 18 milliondan ortiqroq jangchilar yarador va nogiron bo'lib qoldilar.

Ikkinchi jahon urushining 1-davrida – 1939-yil 1-sentyabrdan 1941-yil 22-iyungacha bo'lgan davrda fashistlar Germaniyasi G'arbiy va Markaziy Yevropada hukmronlikni qo'lga kiritdi. Germaniya va Italiya Yevropadagi 10 ta davlatni – Polsha, Chexoslovakiya, Yugoslaviya, Belgiya, Gollandiya, Lyuksemburg, Daniya, Norvegiya, Avstriya, Fransiyaning bosib oldi. Millatlar ligasi harakatdan to'xtadi. Germaniya G'arbiy Yevropaning harbiy, iqtisodiy

resurslarini qo'lga kiritgach, 1941-yil 22-iyun kuni urush e'lon qilmasdan SSSRga xoinona hujum boshladi.

O'zbekiston milliy harbiy qo'shilmalar tuzish tashabbusi bilan chiqdi. 1941-yil noyabridan 1942-yil martigacha bo'lgan davrda 14 ta milliy harbiy qo'shilmalar, jumladan, 9 ta o'qchi brigada, 5 ta otliq askarlar diviziyasi tuzilib frontga jo'natildi. Milliy qo'shilma askarlari va zobitlariga yaxshi harbiy ta'lim berishda, ular bilan frontni mustahkamlashda O'zbekistonda tuzilgan zahiradagi 24-o'qchi diviziya katta rol o'ynadi. Diviziyaning boshliqlari va zobitlari tarkibida 178 o'zbek o'g'loni faol xizmat qildi. Bu diviziya urush yillarida 390 ming kishidan ziyod jangovar kuchlar tayyorladi va frontga jo'natdi.

«1941 yilda O'zbekiston aholisi jami 6,5 mln.kishini tashkil etgan, ularning yarmini bolalar va keksalar tashkil etgan bo'lsa, yaroqli odamlarimizning 50-60 foizi, aniqrog'i 1.433.230 kishi urushga safarbar bo'lgan (I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.,3.-T.,«O'zbekiston»,1996, 80-bet).

Ikkinchi jaxon urush davrida O'zbekistondan frontga 1mln. 433230 kishi yuborilgan. Jang maydonlarida 500 ming O'zbekistonliklar qolib ketgan. 132670 kishi bedarak yo'qolgan, 65542 O'zbekistonlik jangchilar esa nogiron bo'lib qaytgan.

Darhaqiqat, bu raqamlarning mag'zini chaqadigan bo'lsak, ular xalqimiz boshiga tushgan cheksiz qayg'u-alam va iztiroblardan dalolat berishi o'z-o'zidan ravshan bo'ladi.

Ular jonini fido qilib sobiq ittifoqning Rossiya va Belorusiya o'rmonlari, Ukraina dashtlari, Bryansk botqoqliklari, Boltiqbo'yi respublikalari, Polsha, Moldaviya, Vengriya, Avstriya, Chexoslovakiya, Bolgariya, YUgoslaviya, Ruminiya erlarida ozodlik va tinchlikni o'rnatdi, o'z yurti O'zbekistonni e'zozladi, kelajak avlod manglayi sho'r bo'lmay, gullab-yashnasin dedi. 500 mingga yaqin yurtdoshimiz noma'lum joylarda, ammo manzilgohi aniq go'shalarda - Vatan, ozodlik va istiqlol deya qurbon bo'ldilar. Ularni faqat izlash, front kechgan joylardan topish lozim edi.

Sobiq ittifoq davrida bu kunni "G'alaba" deya atab kelindi. Vatan ozodligi uchun jonini fido qilgan inson –"Noma'lum askar" degan atama orqali xotirasi butunlay tarixdan o'chirildi, qadri yo'q bo'ldi. Hazrati insonning ruhi-poklari ham noma'lum, allaqaerlarda ko'milib ketgan edi. Bundanda ortiq haqorat bo'ladimi inson uchun? SHu bois Yurtboshimiz, "biz uchun urushlarda qurbon bo'lgan yuz minglab yurtdoshlarimizning nomi ham, jasorati ham ma'lum va hech qachon unutilmagay, inshoollo", deb ta'kidlaganlar.

Ikkinchi jahon urushi yillari fashizm bosqinchilarini tor-mor qilish uchun O'zbekistonimizdan qatnashgan bir million to'rt yuz mingdan ortiq shaxsining turar joyi, manzilgohi bo'lganmi? Ular-guzar, mahalla, qo'rg'on, qishloq-ovuldan urushga, ozodlik va erkinlik kurashiga otlandi-ku!

Birinchidan, tarix fani, harbiy tariximiz oldida xotirani tiklash, ularni qadrlash kabi muqaddas va murakkab vazifa turgan edi.

Ikkinchidan, bu ulug' va ma'suliyatli vazifalarni amalga oshirishda katta tadbirlar o'tkazish hamda tashkiliy ishlarni bajarish uchun Xotira va Qadrlash xalqaro hayriya jamg'armasini tashkil qilish vaqti etgandi. Bu mustaqil jamg'arma, eng avvalo, Ikkinchi jahon urushi qurbonlari faoliyatini to'liq aniqlaydi. Qadriyatning yangi manbalarini topdi – "Noma'lum askar"degan mavhum va tahqirlangan atamaga chek qo'ydi.

Yurtboshimiz bilan o'tkazilgan mazkur suhbatda, avvalo, xalqimizning fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga munosib hissa qo'shgani alohida ta'kidlab o'tildi.

"Bugun hech kimga sir emas: million-millionlab odamlar halok bo'lishiga sabab bo'lgan, mislsiz yo'qotishlar, talafot va musibatlar olib kelgan bu urush insoniyat tarixidagi eng dahshatli, eng qonli qirg'in bo'lganini bu dunyoda hech kim unutmaydi. Va fashizm ustidan qozonilgan g'alaba naqadar qimmatga tushganini yurtimizda yashayotgan har qaysi oila, har qaysi odam yana va yana bir bor anglashi, qalbidan o'tkazishi tabiiydir."

O'tganlar xotirasini o'z yodida saqlab, e'zozlab yashash xalqimiz uchun eng muqaddas fazilat bo'lib kelgani va qon-qonimiz, suyak-suyagimizga singib ketgani ushbu chiqishda alohida qayd etildi.

Qariyb yarim million yurtdoshimiz shu urushda halok bo'lgani, qancha-qanchasi nogiron, mayib-majruh bo'lib qaytgani, qanchadan-qancha ayollar beva, bolalar etim bo'lib qolganini har qaysi oila hali-beri esidan chiqarmaydi. Boshqacha qilib aytganda, yurtimizda birorta xonadon yo'qki, mana shu mudhish urushning jabrini o'z boshidan o'tkazmagan bo'lsa.

Xalqimiz ayni shunday og'ir vaziyatda kunni – kun, tunni – tun demasdan, mashaqqatli mehnat qilib, front uchun, g'alaba uchun munosib hissa qo'shgani hech esimizdan chiqmaydi, deb ta'kidladi Prezidentimiz.

O'zbek xalqining insoniylik, olijanoblik, bolajonlik fazilatlarini urush yillarida mamlakatning g'arbiy viloyatlaridan ko'chirib keltirilgan aholiga, bolalarga ko'rsatgan ochiqko'ngilligi, hamdardligi va g'amxo'rligida o'z ifodasini topdi. O'zbek xalqi urushning dastlabki yillarida Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya, Boltiqbo'yi respublikalaridan ko'chirib keltirilgan bir

milliondan ko'proq kishilarni, shu jumladan, 200 mingdan ko'proq etim bolalarni o'z bag'riga oldi.

Ko'chirib keltirilganlar Andijon viloyatiga 100 ming, Samarqand viloyatiga 165 ming, Namangan viloyatiga 53600 kishi joylashtirildi. Ko'plab oilalar boquvchisiz qolgan bolalarni farzandlikka oldilar. Turli millatlarga mansub bo'lgan 14 bolani farzandlikka olgan toshkentlik temirchi usta Shoahmad Shomahmudov va uning umr yo'ldoshi Bahri Akramovalar yuksak insoniylik fazilatlarini ko'rsatib ko'pchilikka ibrat bo'ldilar. Urushdan nogiron bo'lib qaytib kelgan kattaqo'rg'onlik Hamid Samatov oilasi 13 bolani, samarqandlik kolxozchi ayol Fotima Qosimova oilasi 10 bolani o'z bag'riga oldi.

Bizning ota-bobolarimiz beshafqat jang maydonlarida mardlik va matonat ko'rsatgani uchun ularning 338 nafari Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgani, ming-minglab yurtdoshlarimiz jangovar orden va medallar bilan taqdirlangani – bularning barchasini xalqimizning fashizmga qarshi kurashda ko'rsatgan jasorati va botirligi namoyishidir.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, chegarani buzib o'tgan fashistlarga birinchi bo'lib o'q uzgan o'zbekistonliklar ko'p bo'lgan. Doniyor Abdullaev, Boboxalil Qo'shanov, Ahmad Otaev, Nurum Siddiqov, Uzoq O'taev va boshqalar shular jumlasidandir. Demak, Brest qal'asi devorida hozir ham saqlanib turgan «O'layapman, lekin taslim bo'lmayman. Alvido Vatanim!», degan yozuvda hamyurtlarimizning ham qoni bor.

Ana shu vido xatini yozayotganda o'zbekning Doniyor, Boboxalil, Ahmad, Nurum, Uzoq va boshqa yigitlarining ko'z oldida qaysi Vatan turar edi? Albatta, O'zbekiston. Ularning kindik qonlari tomgan jannatmakon vodi-yu vohalar, qadimiy Samarqand, Buxoro, Xiva, Qarshi, Toshkent, Amudaryo, Sirdaryo, bog'u-rog'lar, tog'u-dashtlar — O'zbekiston ularning ko'z oldida turganligi shubhasiz.

Volgograd shahri atrofida «Sharqning 11 qahramoni» degan tepalik bor. Urushgacha bu joy Perelazovsk xutori deb atalgan. Nomning o'zgarishiga bizning bobolarimizning qahramonligi sabab bo'lgan. O'shanda 128-gvardiya Turkiston tog'-o'qchi diviziyasi dushmanga qaqshatqich zarbalari bilan mashhur bo'lgan. Yurtdoshimiz, vzvod komandiri, kichik leytenant M.Kabirovga Perelazovsk xutorini egallab, qo'ldan bermay, ushlab turish vazifasi topshiriladi. 40 jangchi to'rt tomoni dushmanga ochiq daladan emaklab o'tib, shafqatsiz jang va yo'qotishlardan so'ng tepalikni egallashadi.

O'shanda tirik qolgan 11 kishining 9 nafari o'zbek, 1 nafari qozoq va 1 nafari tatar edi. Ular dushmanning 300 ta soldatiga qarshi jang qilib,

tepalikni 12 kun qo'lda ushlab turishadi. Dushman chekinadi. Katta jangning taqdirini hal qilgan bu hayot-mamot jangida 11 kishidan faqat A. Erdonov bilan M.Kabirovgina tirik qoladi. Perelazovsk qishlog'ining «SHarqning 11 qahramoni» deb atalishining sababi shunda, deydilar.

Ikkinchi jahon urushi bo'lib o'tgan yurtlarda o'zbekistonlik jangchilar nomi bilan ataladigan joylar ko'p. Ulardan biri – Shukurovka, farg'onalik Ahmadjon Shukurov Kursk atrofida dushmanning 110 ta soldat va ofitserini qirib tashlab, 15 tasini asirga tushiradi. U jasorati uchun qahramon unvoniga sazovor bo'ladi. Zolotaryovka qishlog'i Ahmadjonning jasorati hurmatiga Shukurovka deb ataladi. Partizan otryadining razvedkachisi Mamadali Topiboldiyevni har bir belorussiyalik chuqur hurmat bilan eslaydi. U dushmanning 67 ta soldat va ofitserini yo'q qilib, 180 tasini asirga tushirgan edi. O'zbek xalqining bahodir o'g'loni belorus xalqining xaloskorlari timsollaridan biriga aylandi. Pisarevo qishlog'ini uning sharafiga Topiboldiyevka deb atalishi buning yaqqol misolidir.

Omon Umarov Smolensk, Kiev, Odessa, Sevastopol va boshqa shaharlarda jang qildi. U fashistlarning 3 ta avtomashinasini, 9 nemisni gumdon qildi. O'zining kichik otryadi bilan Odessa yaqinidagi dushman aerodromiga hujum qilib, dushmanning 16 samolyotini, 30 ta avtomashinasini ishdan chiqardi.

353-tog'-o'qchi polki jangchisi Qo'chqor Turdiyev 1941 yilning 25 oktyabr kuni quroldoshlari bilan razvedkaga chiqadi. Kuchli otishmadan so'ng hamma safdoshlari halok bo'ladi. Qo'chqor Turdiyev yakka o'zi qoladi. Biroq u tengsiz jangni davom ettiradi. Natijada dushmanning 9 ta soldat va ofitserini yo'q qiladi. 3 ta nemisni asirga oladi. Bu va bundan oldingi ko'plab jasoratlari tan olinib, unga qahramon unvoni beriladi.

O'zbekistonlik jangchilar o'zlarining jasurligi, azmi qat'iyligi, irodaliligi va mohir merganligi bilan ham shuhrat qozongan edilar. Bu Moskva ostonasidagi qirg'inbarot janglarda yaqqol namoyon bo'ldi. O'zbekning snayperi Ishoqov 354, Abubekov – 229, Yusupov – 132, Madaminov esa – 123 ta fashistni er tishlatdi. Bu jasorat Ikkinchi jahon urushi frontlarida xuddi afsonadek vzvoddan vzvodga o'tib, tildan-tilga ko'chib yurar edi. SHu bois 1753 nafar yurtdoshimiz «Moskva himoyasi uchun» medali bilan mukofotlangan.

O'zbekning jasur qizlari yigitlardan kam emasligini ko'rsatganlar. Urush boshlanganda institutda o'qiyotgan andijonlik Zebo G'anieva «Meni frontga yuborishingizni so'rayman», deb ariza beradi. U tezda tajribali razvedkachi va snayper bo'lib etishadi. Moskvani himoya qildi. Snayper Zebo G'aniyeva birgina 1942 yilning 21 martida 23 ta fashistni er tishlatadi.

Stalingrad jangida ofitser Mamasoli Jabbarov komandirligidagi moto-o'qchi rota dushmanning 400 soldat va ofitserini yo'q qilib, 230 fashistni asirga olib, ko'plab qurol-yarog'ni qo'lga kiritadi. Snayper Hayit Xo'jamatov esa o'z miltig'i bilan 117 fashistni, pulemyoti bilan esa dushmanning 300 dan ziyod soldat-ofitserini qirib tashlaydi. Biroq, ularning jasoratlari munosib taqdirlanmaydi.

O'zbek yigitlari Yevropani fashizmdan qutqarishda jasorat ko'rsatdilar. Masalan, Fransiyaning Alee, Belfor, Sen-SHeli kabi departamentlarini ozod qilishda samarqandlik Abdulla Rahmatov, bulung'urlik Sariboy SHomurodov, tosh-kentlik Rahmon Rahimov, Nasib Amirov va boshqalar jasorat ko'rsatdilar. Fransiya-ni ozod qilishda ko'rsatgan qahramonliklari uchun qo'qonlik Hoshimjon Ismoilov va toshkentlik Tojiboy Ziyoevlar Fransiyaning «Janna d'Ark» ordeni bilan mukofotlandilar. Andijonlik Turg'un Qo'chqorov, Ahmad Mamajonovlar Italiyaning Karraru shahrini ozod qilish-da jang qildilar.

Frontda halok bo'lgan 500 ming va front ortida jasorat ko'rsatgan ming-minglab hamyurtlarimizning har biri haqida bittadan kitob yozsa ham kamlik qiladi.

Dunyo shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi sharoitda Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning mazmun-mohiyati haqida biri biriga zid fikr-lar aytilmoqda. Ba'zi mamlakatlarda bos-qinchilar xaloskor, xaloskorlar bosqinchi deb atalmoqda. Ana shunday vaziyatda 1,5 million o'zbekistonlik jangchining ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki mohiyatini qanday anglamoq kerak? Ularni qanday kuch qahramonlik ko'rsatishga undagan?

Bu savolga 1999 yil 9 may kuni Prezident Islom Karimov tomonidan aytilgan javob har o'zbekistonlikning dilidagi gap bo'ldi. Ya'ni Ikkinchi jahon urushida o'zbekis-tonliklar «...qandaydir nomsiz tepaliklar, begona mamlakatlar uchun noma'lum soldat bo'lib jang qilmaganlar. Ular qaysi jang-gohda bo'lmasin, o'z ona yurti, tug'ilib o'sgan qishlog'i, mushtipar onasi, suyukli yori, farzandlarining qadrdon siymosi doimo yuragida, fikru xayolida turgan. Jangu jadal maydonlarida Stalin uchun yoki qandaydir mavhum ulug' g'oya uchun emas, shular uchun jon bergan. Ya'nikim, ular olis Yevropada turib o'z yurtini, jonajon O'zbekistonini fashizm balosidan himoya qilgan».

Prezidentimiz Islom Karimov 9 may kunining ma'no-mazmuni haqida so'zlab, «Agar ana shu dahshatli urushda 1,5 million yurtdoshlarimiz qatnashganini, shulardan taxminan 500 ming vatandoshimiz halok bo'lganini inobatga oladigan bo'lsak, O'zbekis-tonda o'sha paytdagi

xonadonlarning birontasini bu fojia chetlab o'tmagani ayon bo'ladi», degan edi.

Darhaqiqat, O'zbekning fashizmdan jabr ko'rmagan birorta mahalla, qishloq, oilasi qolmagan edi. Agar O'zbekiston xaritasini yoyib, urushdan jabr ko'rgan qishloq, mahalla, oilalarni jarohat rangiga bo'yab chiqilsa, butun mamlakat jarohat rangiga kirsam ajab emas.

Ular fashizm O'zbekistonga yetib kelmasin, deb uni yo'lda daf qildilar. Shuning uchun o'zlarini qurbon etdilar. Bu bilan ular dunyoni fashizmdan ozod etishga munosib hissa qo'shishdi.

Shunday ekan, ularni xotirlash, jasoratlarini yoshlarga ibrat qilib ko'rsatish bizning muqaddas burchimizdir.

Xotira — ajdodlarga yuksak hurmat va ehtirom ifodasi. Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug'. Prezidentimiz tomonidan istiqlolning ilk yillaridan el-yurtimiz taqdiriga daxldor tarixiy adolatni tiklash, ajdodlarimizning ezgu ishlari, jasoratini ulug'lash va abadiylashtirish, mamlakatimizda inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilayotgan e'tibor xalqimizning ana shunday o'lmas qadriyatlari, bebaho ma'naviy fazilatlarini namoyon etib kelmoqda. Ikkinchi jahon urushida jasorat ko'rsatgan, olovli maydonlarda o'z yurtining tinchligi va ozodligi, oilasi, farzandlarining xotirjamligi uchun kurashgan insonlar mudom xalqimiz ardog'ida. Beayov janglarda jon fido qilgan bobolarimiz xotirasi qalblarimizda abadiy yashaydi. Bugun oramizda yashayotgan 6 ming nafardan ziyod Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga davlatimiz tomonidan har tomonlama e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda.

Respublika faxriylar uyushmasining tashabbusi bilan fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning 50 yilligi munosabati bilan janglarda halok bo'lgan 400 mingga yaqin vatandoshlarimiz haqida arxiv materiallari to'planib, bu ma'lumotlar asosida "Xotira" turkumida 33 kitob nashr etildi. Fashizm ustidan qozonilgan 9-may kuni O'zbekistonda "Xotira va Qadrlash" kuni sifatida nishonlanmoqda. Urushda qurbon bo'lganlarni xotirlash, biz bilan hozirgi kunlarda yonma-yon yashayotgan urush faxriylarini qadrlash, e'zozlash, hurmatini joyiga qo'yishdek ulug'vor insoniy ishlar yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda, mustaqil O'zbekistonning milliy xavfsizligini mustahkamlashda katta ahamiyatga egadir.

Vatan ozodligi va erkinligi, el-yurtimizning tinch va osuda hayotini himoya qilishda kurashib jon bergan o'g'lonlarining nomlari va xotirasi ko'pni ko'rgan, hech qachon yovuz dushman oldida bosh egmagan xalqimizning yodida umrbod, abadiy saqlanadi. Bu fazilat el-yurtimizning ezgu odatiga, qadriyatiga aylanib ketgan.

Shularni hisobga olgan holda, bundan 17 yil oldin 9 may – G'alaba kuniga yurtimizda Xotira va qadrlash kuni deb nom berib, naqadar to'g'ri ish qilganimizni vaqt o'tishi bilan bugun hayotning o'zi tobora tasdiqlab bermoqda. Buning yaqqol ifodasini poytaxtimiz Toshkent shahrining markazida va joylarda barpo etilgan Xotira maydonlari ayni shu kunlarda urushdan qaytmaganlarni eslash, ularning xotirasi oldida bosh egish uchun kelgan yoshu qarilar, aholimiz va chet ellik mehmonlar bilan gavjum bo'lganida ko'rish mumkin. Bizning eng sharaflı vazifamiz – urushda qatnashgan, bugun safimizda bo'lgan, har qadamda bizni qo'llab-quvvatlab kelayotgan faxriylarimiz, beshafqat urushda qatnashgan, front ortida o'zini ayamasdan mehnat qilgan vatandoshlarimizni qadrlash, e'zozlash, umrini uzaytirish, ularni eslab, holidan xabar olish, ruhini ko'tarishdir.

Bu borada Keksalarni e'zozlash yili, deb nom olgan joriy yilda, jumladan, 9 may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan mamlakatimizda keng ko'lamli, katta chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Davlat dasturi doirasida yoshi ulug' insonlarning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish, tizimli asosda sog'lomlashtirish kabi xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2015 yil 19 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari – 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini "Ikkinchi jahon urushidagi G'alabaning 70 yilligi" esdalik yubiley medali bilan mukofotlash to'g'risida"gi hamda 6 martdagi "1941-1945 yillardagi urush qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi farmonlari keksalarimizga ko'rsatilayotgan e'zoz va ehtiromning mantiqiy davomi bo'ldi. Mazkur farmonlarga muvofiq urush qatnashchilari va nogironlariga yubiley medallari, pul mukofotlari va bayram sovg'alari tantanali ravishda topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 14 aprelda qabul qilingan "Keksalarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni nuroniylarimizga qo'shimcha rag'bat, katta ruhiy madad bo'ldi. Bu yil Xotira va qadrlash kuni Keksalarni e'zozlash yilida nishonlanayotgani uning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bayram "Jasorat, burch, matonat" shiori ostida keng nishonlandi.

Yoshi ulug' insonlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning tibbiy, maishiy sharoitlarini yanada yaxshilash biz uchun doimo dolzarb vazifa sifatida turishi darkor.

Inson, xalq, millat tarixiy xotira bilan tirik va barhayotdir.

Fashizm balosi ustidan qozongan G'alabamizni, bu urushda xalqimiz ko'rsatgan matonat, mardlik va qahramonlik namunalarini avlodlarimiz aslo unutmaydi.

“Mana shu beshafqat urushda, jang maydonlarida qurbon bo'lgan otabobolarimiz qandaydir tepalik yoki qandaydir “ulug' dohiy” uchun emas, avvalo, o'z yurti, ota-onasi, sevgan yori, farzandlari uchun jon bergan, “Qani endi, yurtimni, o'zimning azizlarimni yana bir bor ko'rsam”, deb hayotdan ko'z yumgan, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.”

Urushda xalok bo'lganlar bundan keyin o'z uyini, qarindosh-urug'larini ko'rmasliklarini bilgan holda jangga kirishdi. Ular o'z yaqinlari tinchlikda yashashini istagan holda qaxramonliklar ko'rsatishganiga shubxa yo'q. Fashizmga qarshi kurash nafaqat frontda, balki front ortida ham olib borildi. O'zbek xalqi ham urush yillarida issiq-sovuqqa, och-nahorlikka qaramay qaxramonliklar ko'rsatdi. Bugungi kunda nafaqat, qo'lda qurol olib jangga kirgan, balki “hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun” deya dalada, zavod-fabrikalarda kechayu kunduz mehnat qilgan otabobolarimizni, onalarimizni unutishga aslo haqqimiz yo'q. Osmonimiz musaffo, yurtimiz tinch bo'lishida ularning munosib xissasi bor. Ularning xotirasi oldida ta'zim qilgan holda, tiriklarni qadrlaymiz.

Prezidentimiz 9 may — Xotira va qadrlash kunida ommaviy axborot vositalari vakillari bilan suhbatida bugungi kunda butun insoniyatni o'ylantirishi lozim bo'lgan yana bir o'ta muhim mavzuga batafsil to'xtalib o'tdi. Yurtboshimiz Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaga 70 yil bo'lishiga qaramasdan, ming afsuski, jahonning turli mamlakatlarida, turli hududlarida fashizm degan ofat yana ildiz otayotgani, qayta bosh ko'tarayotgani, millatchilik kabi juda xavfli balo tobora tarqalib borayotgani, bunday xavf-xatarlarni sezmaslik, ko'rmaslik, ularga nisbatan beparvo bo'lib yashash aslo mumkin emasligi haqida so'z yuritdi.

Bugun yer sharining turli burchaklarida kuzatilayotgan qirg'in-barot, qurolli to'qnashuvlarni kuzatar ekanmiz, tinchlik zamonamizning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolayotganini anglaymiz. Ona sayyoramizni urushlardan, zo'ravonliklardan, jinoyatlardan holi qilish har bir fuqaroning muqaddas burchidir.

21 asr – urush va zo'ravonliklardan holi asr bo'lishi kerak. Buning uchun har bir inson buzg'unchilik bilan emas, balki bunyodkorlik bilan shug'ullanishi kerak. Biz yer shari deb atalmish katta oilada tinchlik-xotirjamlikda yashashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, har qanday urushlarga qarshi chiqishimiz kerak.

Biz hech qanday harbiy-siyosiy blokka qo'shilmaymiz, O'zbekiston hududida chet el harbiy bazalarining joylashuviga, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz tashqarisida bo'lishiga yo'l qo'ymasligimiz zarur, deb hisoblaymiz.

Urushning asosiy dushmani xotiradir. Qadimgilar aytganidek, o'tmishdagi urushlardan xulosa chiqarilmas ekan, yangi urushlar boshlanaveradi. Qahramonlarimiz xotirasi qalbimizda ekan, yangi urushga yo'l qo'ymaymiz.

O'z yurtini sevish, ona Vataniga sadoqatli bo'lish, hech shubhasiz, xalqimizning qon-qoniga singib ketgan fazilatdir.

Istiqlol davrida tug'ilib voyaga yetgan, mustaqil va yangicha fikrlaydigan, buyuk maqsadlar sari intilayotgan farzandlarimiz otabobolaridan meros bo'lib qolgan o'z yurtini, tug'ilgan tuprog'ini muqaddas deb bilishi, uning ertangi yorug' kuni uchun butun borlig'ini bag'ishlashga, kerak bo'lsa, jonini fido qilishga tayyor bo'lishi – bularning barchasi bugun hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan yoshlarimiz hayotining uzviy bir qismiga aylangani hammamizga ishonch va kuch-quvvat bag'ishlaydi.

Oldimizda turgan eng ustuvor vazifalar haqida gapiradigan bo'lsak, dedi davlatimiz rahbari, eng muhimi, barchamizning boshlagan ishlarimizning davomchisi bo'lgan, barcha mas'uliyatimizni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan farzandlarimiz – yoshlarimiz, yangi avlodlarimizga ravon yo'llarni ochib berishga e'tiborimizni yanada kuchaytirishimiz zarur va ularni har qanday balo-qazolardan asrashimiz kerak.

Prezidentimiz intervyuda bugungi kun va yaqin istiqbolning umumbashariy, umummilliy dolzarb masalalari xususida teran va tahliliy fikr-mulohazalarini bildirar ekan, avvalo, bugungi osoyishtalikning qadriga etishimiz, o'zaro elkadosh, hamqadam va hamjihat bo'lib, turli baloyu ofatlarni tag-tomiri bilan yo'qotishimiz lozimligini alohida ta'kidlab o'tdilar. Ana shu da'vatlar orqali bashariyat tinchligi va tamadduni rivojiga soya tashlab turgan, kelajagiga tahdid solishi mumkin bo'lgan muammolar haqida co'z yuritildi.

Bugungi tahlikali zamonda bizdan talab etiladigani — ogohlik. Taraqqiyotimizga hasad ko'zi bilan qarovchilarning makriga uchmasligimiz, yolg'onu ig'volariga aldanmasligimiz zarur. Prezidentimiz aytganidek, ko'zimizni kattaroq ochib, kechagi tarixdan o'zimiz uchun zarur xulosayu saboqlar chiqarish fursati keldi. Bu har bir yurtdoshimizning nafaqat imon va vijdon ishi, balki ham qarzi, ham farzidir. Zero, xalqimiz ta'biri bilan aytganda, Yaratganning nazari tushgan yurtida yashaymiz. Bu o'lkaning har qarich eri zar, har hovuch tuprog'i oltinga teng.

Mavzu	“KECHA KIM EDIGU, BUGUN KIM BO‘LDIK?”
1. Darsning o‘qitish texnologiyasi modeli	
O‘quvchilar soni: 30	Vaqt: 2 soat
O‘quv mashg‘ulotining shakli	O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 24 yilligiga bag‘ishlangan o‘quv mashg‘ulot
Mavzu rejasi	1. Mustaqillik bu milliy davlatchilik, haq huquqlarimizning tiklanishi va rivojlanish imkoniyatlari. 2. Dunyoda e’tirof etilgan “o‘zbek modeli”ning ijtimoiy hayotdagi o‘rni. 3. O‘zbekiston erishayotgan yutuq va marralar, “Kim edigu, kim bo‘ldik?”. 4. Eng muhim dolzarb vazifa – yurt tinchligi, xalq farovonligidir
Darsning maqsadi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 17 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qaroridagi fikr va g‘oyalar haqida yaxlit tasavvurni shakllantirish, mustaqillik sharofati bilan amalga oshirilgan ezgu ishlar, sa’y-harakatlar, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda erishilgan yutuqlarni o‘quvchilar qalbi va ongiga singdirish	
Pedagogik vazifalar:	O‘quv faoliyatining natijalari:
Mustaqillik biz uchun milliy davlatchiligimizni, o‘zligimiz, insoniy haq-huquq va qadr-qimmatimizni tiklash, urf-odat va an’analarimizni, muqaddas islom dinimizni, buyuk ajdodlarimizning tabarruk nomlarini ulug‘lash, sog‘lom va barkamol yangi avlodni shakllantirish ekanligini hayotiy misollar bilan tushuntirib berish	Mustaqillik biz uchun milliy davlatchiligimizni, o‘zligimiz, insoniy haq-huquq va qadr-qimmatimizni tiklash, urf-odat va an’analarimizni, muqaddas islom dinimizni, buyuk ajdodlarimizning tabarruk nomlarini ulug‘lash, sog‘lom va barkamol yangi avlodni shakllantirish imkoniyati ekanligini bilib oladilar

Dunyoda e'tirof etilgan "o'zbek modeli"ning ijtimoiy hayotdagi o'rnini tahlillar orqali ochib berish	Dunyoda e'tirof etilgan "o'zbek modeli"ning ijtimoiy hayotdagi o'rnini ko'rsatib bera oladilar
O'zbekiston erishayotgan yutuq va marralarni hayotiy misollar bilan yoritib berish	O'zbekiston erishayotgan yutuq va marralarni aytib bera oladilar
Eng muhim dolzarb vazifa – yurt tinchligi, xalq farovonligi ekanligini hayotiy va jonli misollar bilan yoritish	Eng muhim dolzarb vazifa – yurt tinchligi, xalq farovonligi ekanligini angelaydilar, yurt tinchligi uchun fidoyilikni namoyon etadilar
<i>O'qitish metodlari</i>	Ma'ruza, aqliy hujum, tushuntirish, ko'rsatish, namoyish, yo'riqnoma berish va boshq.
<i>O'quv faoliyatini tashkil etish shakli</i>	Ommaviy / jamoaviy / guruhli / individual.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanma, jadvallar, plakatlar, proektor, kompyuter, yozuv taxtasi va boshq.
<i>O'qitish sharoiti</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar
<i>Qaytar aloqaning yo'l va vositalari</i>	Tezkor-so'rov, savol-javob, test, bajarilgan o'quv topshiriqlar taqdimotini baholash.

Darsning texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqt	Faoliyat	
	O'qituvchi	O'quvchilar
I bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.)	Tashkiliy boshlanish. 1.1. O'quvchilarni mashg'ulotga tayyorgarligi va davomatini tekshiradi. Tashkiliy boshlanish. O'quvchilarni mashg'ulotga tayyorgarligi va davomatini tekshiradi. Maqsad va vazifani belgilanishi. 1.2. Mavzuning nomi, rejasi, maqsad va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi va yozib olishlarini aytadi. Bugungi mashg'ulot O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 24 yilligiga bag'ishlanganligini eslatib o'tadi. 1.3. Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar bilan tanishtiradi. 1.4. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash ko'rsatkich va mezonlari bilan tanishtiradi.	Tinglaydilar, yozib oladilar Tinglaydilar. Yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (60 daq.)	O'quvchilarni faollashtirish. 2.1. O'quvchilarni faollashtirish maqsadida "Aqliy hujum" usulidan foydalanilgan holda quyidagi savol bilan ularga murojaat qiladi: "Betakrorimsan, yagonasan, ona Vatanim - O'zbekistonim!" deganda nimani tushunasiz?". 2.2. O'quvchilarning javoblarini tinglab, umumlashtiradi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 24 yilligi ana shu ezgu g'oyani o'zida mujassam etganligi hamda bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 17 iyuldagi Qarorining mazmun va mohiyatiga to'xtalib o'tadi. O'quv materialiga kirish. 2.3. Vizual materiallar, jonli va hayotiy misollar orqali mavzu rejalarini, mustaqillik biz uchun milliy davlatchiligimizni, o'zligimiz, insoniy haq-huquq va qadr-qimmatimizni tiklash, urf-odat va an'analarimizni,	Individual ravishda ishlaydilar, muhokama qiladilar va javob beradilar. Slaydlarni o'rganadilar, fikr bildiradilar. Savollarga javob beradilar. Slaydlarni o'rganadilar, sharh mobaynida sxema, jadvallarni muhokama qiladilar.

	muqaddas islom dinimizni, buyuk ajdodlarimizning tabarruk nomlarini ulug'lash, sog'lom va barkamol yangi avlodni shakllantirish bo'yicha ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan beqiyos imkoniyatlar ochib berganini slaydlar yordamida birin-ketin yoritib beradi (1-ilova). 2.4. Mavzuning asosiy mazmuni, dunyoda e'tirof etilgan "o'zbek modeli"ning ijtimoiy hayotdagi o'rni, O'zbekiston erishayotgan yutuq va marralar, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi masalalarga e'tibor qaratadi, ularni yozib olishni taklif etadi. 2.5. Mavzuni o'quvchilar qay darajada o'zlashtirganligini aniqlash maqsadida blits-so'rov o'tkazadi (2-ilova). 2.6. O'quvchilar javoblarini umumlashtirib, yakuniy xulosa chiqaradi.	Aniqlashtiradilar, savollar beradilar Savollarga javob beradilar, tinglaydilar, yozib oladilar. Erkin fikr bildiradilar. Savollarga javob beradilar
III bosqich. Yakuniy. (10 daq.)	Mashg'ulot yakuni. 3.1. Mavzuni yakunlaydi, mustaqillik oliy qadriyat, uni avaylab-asramoq kerakligini yana bir bor ta'kidab o'tadi. 3.2. Faol ishtirok etgan o'quvchilarni rag'batlantirdi. Uyga vazifani berilishi. "Betakrorimsan, yagonasan, ona Vatanim – O'zbekistonim!" mavzusida esse yozish	Tinglaydilar. Savollarga javob beradilar. O'zini qiziqtirgan savollar beradi. Eshitadilar. Yozib oladilar.

O'QUV MATERIALINING SLAYDLI TAQDIMOTI ¹

1-slayd

“Betakrorimsan, yagonasan, ona Vatanim –O‘zbekistonim!”	
BUYUK VA O‘CHMAS SANA:	1991 yil 1 sentabr
2015 yil 1 sentabr	
	

2-slayd

Shu kunlarda xalqimiz Vatanimizning shonli tarixidagi buyuk va o‘chmas sanani – O‘zbekiston mustaqilligining 24 yilligini keng nishonlash uchun katta tayyorgarlik ko‘rmoqda. Ana shu ulug‘ ayyomni munosib kutib olish va o‘tkazish maqsadida bugungi kunda olib borayotgan ma’naviy-ma’rifiy faoliyatimizning asosiy ma’no-mazmunini avvalo biz tanlagan taraqqiyot yo‘lining har tomonlama to‘g‘ri va hayotiy yo‘l ekanini, yangi demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish borasida biz erishgan yutuq va marralarning mohiyati va ahamiyatini yurtimiz aholisi va jahon jamoatchiligiga yetkazish, ularning qadr-qimmatini chuqur anglash darkor




¹ Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashi, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi media taqdimotlaridan foydalanildi.

O'zbekistonimiz barqaror sur'atlar bilan o'sib borayotgani, qo'lga kiritgan ulkan natijalarimizni butun dunyo tan olayotgani, mamlakatimizning xalqaro maydonda obro'-e'tibori ortib, o'ziga munosib o'rin egallab olayotganini keng yoritish, bu yutuqlarning asosiy omili va mezonini birinchi navbatda xalqimizning dunyoqarashi, odamlarimizning siyosiy ongi va tafakkuri o'zgarib, fuqarolik faolligi tobora kuchayib borayotganida ko'rish, ushbu ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni har tomonlama asoslab berish va bir-biri bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilish o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlash zarur



Kim edigu, kim bo'ldik?



Xalqimiz asrlar davomida intilib yashagan va kurashgan, mustaqillik degan bebaho ne'matning qadr-qimmatini teran idrok etib, o'tgan davr mobaynida bosib o'tgan og'ir va mashaqqatli, ayni vaqtda sharaflı yo'limiz, keng ko'lamli islohotlarimiz, qo'lga kiritgan ulkan yutuqlarimizning tub mohiyati va ahamiyatini chuqur anglab, sodda qilib aytganda, biz kecha kim edigu bugun kim bo'lganimizni unutmashimiz darkor

O'zbekiston o'z vaqtida sobiq mustabid tuzumning ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan, biryozlama rivojlangan nochor iqtisodiyotdan, "shok terapiyasi" kabi noma'qul modellardan butunlay voz kechib, mashhur besh tamoyilga asoslangan o'z taraqqiyot yo'lini qat'iy tanlab olgani va dunyoda "o'zbek modeli" sifatida e'tirof etildi. Yaqin o'tmishda qoloq agrar respublika bo'lgan, iqtisodiyotining asosini paxtachilik va paxtani qayta ishlash korxonalari tashkil etgan O'zbekistonning bugungi kunda sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan, zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini barpo etish hisobidan iqtisodiyotda sanoatning ulushi 25 foizga yetgan, eksportbop va raqobatdosh mahsulotlarning 60 foizdan ortig'i yuqori texnologiyalarga asoslangan sohalarda ishlab chiqarilayotgan, kuch-qudrati va salohiyati yuksalib borayotgan mamlakatga aylandi



Mustaqillikka qadar mamlakatimizda umuman mavjud bo'lmagan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi bugungi kunda yalpi ichki mahsulotning 56 foizdan ortig'ini ishlab chiqarayotgani, mazkur tarmoqda jami ish bilan band aholining 75-77 foizi mehnat qilayotgani bu soha jadal rivojlanib, o'rta sinf — mulkdorlar sinfi jamiyat tayanchiga aylandi.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab aholimiz, birinchi navbatda keksa avlod vakillari, xotin-qizlar va yoshlarga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish uchun davlat byudjetidan ijtimoiy ehtiyojlar, jumladan, aholini qo'llab-quvvatlash va sotsial sohani mustahkamlashga ajratilayotgan yillik xarajatlar izchil oshib borayotganini, birgina 2014 yilda bu raqam 60 foizdan ortganida ko'rish mumkin

TA'LIM-TARBIYA – MUSTAHKAM POYDEVOR

Zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallagan, mustaqil fikrlaydigan, o'z ona yurtiga mehr va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan, hech kimdan kam bo'lmaydigan, hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqayotgan yangi avlodni tarbiyalash maqsadida yurtimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Shular qatorida faqat so'nggi 5 yilda mamlakatimizda 278 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, 523 ta sport inshooti va 100 dan ziyod suzish havzalari qurilib, rekonstruktsiya qilindi, bugungi kunda 2 million nafar farzandlarimiz, jumladan, 840 mingdan ortiq qizlarimiz sport bilan muntazam shug'ullanib kelmoqdalar

BIZ UCHUN O'TA MUHIM



SOG'LIQNI SAQLASH, ILM-FAN, MADANIYAT VA SAN'AT, SPORT SOHALARIDA QO'LGA KIRITGAN YUTUQ VA MARRALARIMIZDIR



Mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab xotin-qizlarga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, oila va jamiyat hayotidagi nufuzini oshirish, qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarish, onalik va bolalikni himoya qilish, ayniqsa, qiz bolalarni zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallab, hayotda munosib o'rin olishi uchun amalga oshirayotgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi

XOTIN-QIZLAR, OILA VA JAMIYAT HAYOTI



8-slayd

TINCHLIK UCHUN KURASHIB YASHASH



Yurtimizda hukm surayotgan tinch va osoyishta hayot, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni saqlash, chegaralarimiz daxlsizligini asrash, uzoq va yaqin atrofimizdagi davlatlar bilan do'stona munosabatlar va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlash, turli mintaq va hududlarda xavf-xatar va tahdidlar tobora kuchayib borayotgan tahlikali zamonda doimo ogoh, sergak va hushyor bo'lib yashash, safarbarligimizni yanada oshirish — bugun hayotning o'zi barchamizdan talab qilayotgan eng muhim va dolzarb vazifadir

9-slayd

O'ZBEKISTON ERISHAYOTGAN YUTUQ VA MARRALAR DUNYO HAMJAMIYATI TOMONIDAN KENG E'TIROF ETILMOQDA

Britaniyaning nufuzli "Economist" jurnali o'tkazgan so'rovga ko'ra, o'tgan yili poytaxtimiz obodligi va qulayligi bo'yicha dunyoning 140 ta shahri ichida 58-o'rinni egalladi va jahon klassifikatsiyasida yashash uchun eng qulay sharoitlarga ega shaharlar safidan o'rin oldi. Bir oz oldinroq MDHdagi

shaharlar ichida faqat Samarqand Amerikaning “The Huffington Post” nashrida e’lon qilingan “albatta borib ko’rish lozim bo’lgan dunyoning 50 shahari” ro’yxatiga kiritilgandi. Ayni paytning o’zida Amerikaning “Gallup” tadqiqot kompaniyasi tuzgan “yaxshi kayfiyat indeksi” bo’yicha Vatanimiz 136 mamlakat ichida 29-o’rinni egallagandi. Bu ro’yxatda mamlakatimiz nafaqat Hamdo’stlikdagi barcha qo’shnilarni, balki Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarni ham ortda qoldirdi. Yangilangan “World Happiness Index” (“Jahon baxtiyorlik indeksi”) reytingida O’zbekiston 44-o’ringa ko’tarilib, bu borada MDH va Boltiqbo’yi davlatlari orasida yetakchiga aylandi. Kolumbiya universiteti sotsiologlari tomonidan BMT ko’magida o’tkazilgan tadqiqotda aholi farovonligi, hayot davomiyligi, ishsizlik darajasi, inson huquqlari va boshqa ko’plab mezonlarga yuqori baho berildi

10-slayd

XALQIMIZGA XOS FAZILATLAR



Biz mustaqillik yillarida qanday og’ir va mashaqqatli sinovlardan o’tib, misli ko’rilmagan yutuqlarga erishgan bo’lsak, ularning barchasi zahirida faqatgina xalqimizning **fidoyi mehnati, chidamliligi, olijanoblighi va bag’rikenglighi, matonati va jasorati, ertangi kunga mustahkam ishonchi** mujassam ekanini teran anglashimiz zarur

Blits-so’rov savollari

1. Mustaqillik bu ...
2. Mustaqillik uchun kurashgan kimlarni bilasiz?
3. Sizningcha mustaqillik tom ma’noda nima?
4. O’zbekistonning mustaqillik odimlarini ketma-ketlikdagi xronologiyasini tuzing?
5. O’zini anglash baxti deganda nimani tushunasiz?
6. O’tgan yigirma to’rt yillik mustaqil taraqqiyot yo’li O’zbekistonning rivojlanish va yuksalish, ja hamjamiyatidan munosib o’rin egallash davri ekanligini ko’rsatib bering.
7. Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori nimaga asoslangan?
8. “Hushyorlikka da’vat: o’z uyingni o’zing asra!” iborasining mazmun va mohiyatini tushuntirib bering.
9. O’zingiz yashab turgan hududda mustaqillik sharofati bilan barpo etilgan qanday inshootlarni bilasiz

seminar mashg'ulotini o'tkazish bo'yicha uslubiy tavsiyalar

Mavzu: BIZ TINCHLIK TARAFDORIMIZ

REJA:

1. Tarixdan saboq olib, zamon bilan hamnafas yashash hayot talabi.
2. Tinchlik – barqarorlik va taraqqiyot omili.
3. O'zbekiston baxtiyorlar diyori.

Mamlakatimiz mustaqil taraqqiyot yo'lida o'z oldiga qo'ygan marralarga etish, ya'ni rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimizning hayot sifati va darajasini yuksaltirish va yurtimizning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashida avvalo juda tez o'zgarib borayotgan bugungi zamon bilan hamnafas bo'lib, ertaga yo'limizda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan turli muammo va tahdidlarni bartaraf etish haqida doimo o'ylab yashash zaruratini hayotning o'zi talab qilmoqda.

Bu haqiqatni har tomonlama chuqur anglash, xalqimiz, avvalo yoshlarimizga etkazishda mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning " O'tganlarni xotirlash, keksalarni e'zozlash – bizning farzandlik burchimizdir" intervyusi mazmun-mohiyatini o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida o'rganish, hech shubxasiz, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy tafakkurini o'stirish, ularning qalbida o'z yurti, o'z Vataniga nisbatan daxldorlik, faxr-iftixor tuyg'ularini yuksaltirishdek ezgu maqsadlarga xizmat qiladi.

Seminar mashg'ulotini o'tkazishda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, dunyoqarishining kengligi, mavjud olingan bilimlarning tahlili bosh maqsad hisoblanadi. Maqsadga erishish uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Masalan: T SXEMA.

T SXEMA BO'YICHA 2-O'QUV TOPSHIRIQ

KIM EDIK?	KIM BO'LDIK?

Masalan: Keys bosqich.

“Case study” inglizcha soʻz birikmasi boʻlib, oʻzbek tilida «vaziyatni oʻrganish» maʼnosini anglatadi. Taʼlim tizimida bu usul berilayotgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bogʻlagan holda, oʻquv jarayonida turli xildagi hayotiy xodisalarni oʻquvchilar yordamida tahlil qilishdan iborat.

«Vaziyatni oʻrganish» usulida dars oʻtish 5 ta bosqichda kechadi. Bu usulda oʻtilgan dars oʻquvchilarning tahliliy qobiliyati rivojlantiradi; muammoli vaziyatdan chiqish yoʻlini topishga koʻmaklashadi, qaror qabul qilish uchun masʼuliyatni oʻziga ola bilish va faol hapakat qilishga oʻrgatadi.

“Vaziyatni oʻrganish» usulida dars oʻtish uchun vaziyatli masala tuzish kerak boʻladi. Uni tuzishda quyidagilarga eʼtibor berish lozim:

- maqсадni aniqlash;
- mavzuni tanlash;
- mavzuga oid maʼlumotlar toʻplash;
- mavzuni yoritish orqali yana nimalarni oʻrgatish mumkinligini aniqlash;
- bosh qahramonni oʻylab topish yoki korxonaning iqtisodiy muammosini aniqlash;
- bosh qahramon yoki korxonaning iqtisodiy muammosi tugʻrisida hikoya yozish;
- vaziyatli masalani qanday koʻrinishda oʻquvchilarga taqdim qilish;
- savollar va topshiriqlarni tuzish;
- muhokama va yakunlash jarayonini ishlab chiqish.

Vaziyatni oʻrganish usulini oʻtkazish bosqichlari

No	Bosqichlar	Amalga oshiriladigan ishlar
1	Tanishtirish	Vaziyatni oʻrganish uslubi toʻgʻrisida oʻquvchilarga malumot berib, uni oʻtkazish bosqichlari tushintiriladi
2	Oʻquvchilarga vaziyat toʻgʻrisida axborot berish.	Oʻquvchilar turli mezonlar orqali kichik guruhlariga ajratiladi, oʻqituvchi oʻquvchilarning kichik guruhlarda va yakka holda vaziyatni tahlil qilishlarini nazorat qiladi.
3	Oʻquvchilarni guruhlariga boʻlish va ularning vaziyatni tahlil qilishlarini nazorat qilish	Kichik guruhlardagi vakillar fikrini, yakka holda oʻtkazilganda har bir oʻquvchi fikri yozma ish, ogʻzaki va koʻrgazma shaklida oʻrganiladi.

4	Vaziyat bo'yicha o'quvchilar fikrini bilish.	O'quvchilarning vaziyat bo'yicha fikrlari o'rganilgach, audiotoriya bo'yicha yagona to'xtamga(xulosaga,fikrga) kelinadi. Har bir o'quvchilarning faolligi, bilimi fikri baholanadi.
5	Tahlil natijalarini umumlashtirish.	

Keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- muammoning hamda qabul qilingan echimining individual va guruhviy tahlilda bilim va ko'nikmalarni qayta topshirish;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalapini egallash;
- o'quv axborotlarni o'zlashtirish darajasini tekshirib ko'rish.

“MUAMMOLI VAZIYAT” JADVALINI TO‘LDIRING

Vaziyatdagi muammolar turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari

“MUAMMOLI VAZIYAT” JADVALINING TO‘LDIRILGAN SHAKLI

Vaziyatdagi muammolar turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
Jahonning turli mintaq va hududlarida qarama-qarshilik va ziddiyatlar, qonli mojarolar, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik kabi xavf-xatarlar tobora kuchayib borayotgani, fashizmning yana bosh ko'tarayotgani, millatchilik, shovinizm	Ummonorti va g'arb mamlakatlarida tarix fanini, o'z tarixiy milliy qadriyatlarini o'rganishning g'oyat cheklab qo'yilayotgani, hatto, maktab, ta'lim muassasalarida umuman dars jadvallaridan chiqarib tashlanganligi. Tarixga	Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. YUrtboshimiz tashabbusi bilan "Motamsaro ona" yodgorlik haykali o'rnatildi. Bu qandaydir mavxum timsollar bilan tantana qilinuvchi ijtimoiy-siyosiy tadbirni tamomila o'zgartirib, unga sof milliy tus

singari ofatlarning maydonga chiqishi.	bepisandlik, zamonaviy harbiy, qudratni namoyish qilish xotiradan ko'ra "men zo'rman" degan xudparast niyatni ko'z- ko'z qilish.	berib, mazkur sanani xalq ma'naviyatining ajralmas bir qismiga aylantirishning ibratli namunasi bo'ldi.
---	--	--

T SXEMA

TINCHLIKKA QARSHI XATARLAR	TINCHLIK UCHUN KURASH
Milliy-etnik ziddiyatlar	Xotira va qadrlash
Qonli mojarolar	Beparvolikka yo'l qo'ymaslik
Xalqaro terrorizm	Doimo ogoh bo'lish
Ekstremizm	B M T Xavfsizlik kengashi o'rni va ta'sirini kuchaytirish
Narkotrafik xatarlar	Nufuzli xalqaro institutlarning o'rni va ta'sirini kuchaytirish
Missionerlik, prozelitik	Qo'shni mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar
Neofashizm	O'zaro manfaatli hamkorlik
Shovinizm	Urush insoniyatni yo'q qilishdan oldin, insoniyat urushga barham berish kerak

Izoh: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari dars mashg'ulotlarini tashkil etishda o'zi yashab turgan hududda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan o'zgarishlarni yoritish uchun mavjud materiallar, statistik ma'lumotlardan foydalanishi hamda ko'chma mashg'ulotlarni e'tiborga molik joylar (yangi qurilgan inshootlar, sanoat korxonalari, madaniyat-ma'rifat maskanlari)ga sayoxat tarzida uyushtirishlari mumkin.

Eslatma: Mavzuga oid slaydlar electron shaklda taqdim etilmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T. "O'zbekiston", 2012.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. 1-jild, -T. "O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild, -T. "O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild, -T. "O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild, T. "O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild, -T. "O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot. 6-jild, -T. "O'zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild, -T. "O'zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild, -T. "O'zbekiston, 2000.
10. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild, -T. "O'zbekiston, 2001.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild, -T. "O'zbekiston, 2002.
12. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild, -T. "O'zbekiston, 2002.
13. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12-jild, -T. "O'zbekiston, 2004.
14. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild, -T. "O'zbekiston, 2005.
15. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklar-oliy qadriyat. 14-jild, -T. "O'zbekiston, 2006.
16. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish-barcha ishlarimizning mezon va maqsadidir. 15-jild, -T. "O'zbekiston, 2007.
17. Karimov. I. A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T. "Ma'naviyat" 2008.
18. Karimov I.A. Eng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish. - T.: O'zbekiston, 2009.

19. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010 yil 12 noyabr. - Toshkent: «O'zbekiston», 2010.

20. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonosida. T. "O'zbekiston" – 2011.

21. Karimov I.A. O'tganlarni xotirlash, keksalarni e'zozlash – bizning farzandlik burchimizdir. 9 may 2015 yil Xotira maydonida ommaviy axborot vositalari vakillariga bergan intervyusi // Xalq so'zi, 2015 yil 10 may.

22. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. Mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // "Ma'rifat", 2015 yil, 17 yanvar.

23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining joriy yil birinchi yarim yilligida respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariga bag'ishlangan majlisi to'g'risida axborot.// "Ma'rifat", 2015 yil, 18 iyul.

24. "Betakrorimsan, yagonasan, ona vatanim – O'zbekistonim!" uslubiy qo'llanma, Toshkent: "Ma'naviyat", 2015.

25. Qirg'izboev A, Jo'raeva N, Sindarova F, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli asarini o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida o'rganish bo'yicha dastur va uslubiy qo'llanmaning qayta to'ldirilgan nashri. Toshkent, "VORIS-NASHRIYOT", 2010.

Foydalanilgan Internet resurslar:

press-service.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati

http:// uza.uz / - O'zbekiston Milliy axborot agentligi

http:// xs.uz / - "Xalq so'zi" gazetasi